



Alloh tinchlik diyori – jannatga
da'vat etadi va O'zi xohlagan zotlarni to'g'ri yo'lga hidoyat qiladi.
Yunus surasi, 25-oyat

Horun Yahyo

ISLOM TERRORNI LA'NATLAYDI

**Tarjimon: Ahmad Muhammad Tursun, Mas'ul muharrir: Dilmurod Qo'shoqov,
Noshir: Mubashshir Ahmad, Badiiy muharrir: Ixtiyor Said, © "MUTARJIM" 2003**

MUQADDIMA

Bismillahir rohmahir rohiym.

Olamlar Parvardigoriga hamdlar, Uning rasuli Muhammadga va u kishining oila a'zolari hamda sahobalariga durudu salovotlar bo'lsin.

Ming afsuski, XXI asr insoniyat uchun og'ir sinovlar bilan boshlandi. Go'yoki, Islom diniga daxldor bo'lgan bir guruh kimsalar tomonidan amalga oshirilgan xurujlar oqibatida bir necha ming begunoh insonlar dahshatli tarzda bevaqt olamdan o'tdi. AQSh, Filippin, Indoneziya va Yaqin Sharq yerlarida xunrezliklar muqaddas Islom dinimiz nomidan hamon davom ettirilmogda. E'tiboringizga taqdim qilinayotgan mazkur mo'jaz kitobcha ana shu va boshqa qator dolzarb masalalarga Allohning kalomi – Qur'oni majid hamda Payg'ambarning (s.a.v.) hadisi shariflaridan kelib chiqqan holda oydinlik kiritish yo'lida kamtarona urinishdir.

Biz musulmonlar 2001 yil 11 sentyabrda Amerika Qo'shma Shtatlarining ikki asosiy shahrida sodir etilgan va minglab begunoh odamlarning halokatiga hamda azob-uqubatiga sababchi bo'lgan vahshiyona va g'ayriinsoniy terrorchilik harakatlarini keskin qoralaymiz. Amerika xalqiga o'zimizning samimiy hamdardligimizni izhor etamiz.

Ushbu kun dunyodagi barcha kishilarga terrorning haqiqiy manbai nima ekanligini ochiq - oydin ko'rsatdi. Jahondagi ko'plab



mamlakatlarning rahbarlari, yirik ommaviy axborot agentliklari, televidenie va radio fojiali voqealarga bag'ishlangan chiqishlari hamda dasturlarida Islom dinining ta'limoti boshqa barcha ilohiy dinlar kabi zo'ravonlik va bosim o'tkazishning har qanday shakllarini taqiqlashini, kishilar va xalqlar o'rtasida ezgulik, bag'rikenglik va tinchlikni targ'ib etishini ko'p martalab tushuntirishdi. Islomning asl mohiyatini va Alloh tomonidan Qur'oni karim orqali tushirilgan vahiy - ko'rsatmalarni chuqur biladigan G'arbdagi barcha atoqli islomshunos mutaxassislar: «Islom» va «terror» so'zlari yonma-yon ishlatilishi mumkin emas, birorta ilohiy din har qanday zo'ravonlik va zulmni oqlamaydi va rag'batlantirmaydi», deb ta'kidladilar. Butun dunyo tinchlik va mehribonlik dini bo'lgan, odamlarga rahm-shafqatli va adolatli bo'lishni, muhabbat va birodarlikni buyuradigan Islom dini to'g'risidagi haqiqatni tushunib yetdi.

Mazkur kitob tarkibiga birorta ham samoviy din, ya'ni, na Islom, na nasroniylik, na yahudiylik terrorning shafqatsizlarcha ko'rinishiga manba bo'lishini isbotlovchi juda ko'p tarixiy dalillar kiritildi. Bu haqiqat Alloh taolo tomonidan insoniyatga yuborilgan va Islom ta'limotining asosi bo'lgan Qur'oni karimda ochiq-oydin ochib berilgan. Insoniyat tarixi jarayonida terrorchilar tomonidan o'ylab chiqarilgan, na diniy va na hayotiy haqiqatga mos "g'oyalar" yo'lida olib borilgan, yuz minglab mutlaqo begunoh odamlarning hayotiga zomin bo'lgan juda ko'p fojeali hodisalarni boshidan kechirdi. Alamut qotillari, Inkvizitsiya rahbarlari, diniy urushlarni va qirg'inlarni keltirib chiqarganlar, turli toifadagi "inqilobchilar", kommunistik va fashistik guruhlar, «Islom» niqobi ostida faoliyat yuritib, aslida terrorchilik, nohaq qon to'kish bilan shug'ullanayotgan ko'plab tashkilotlarning zimmasida jahonda u yoki bu dinning mutlaq hokimiyatini o'rnatish, u yoki bu g'oya asosida dunyoni qayta tuzish yo'lida berilgan millionlab qurbonlarning mas'uliyati va gunohi yotibdi. O'z davrida Amerikada irqchi va o'ta terrorchi guruhlar harakatda bo'ldi. Ovrupo mamlakatlari juda ko'plab terrorchi tashkilotlarning zo'ravonlik harakatlari sahnasiga aylandi. Gretsiyada - «17 noyabr» guruhi, Olmoniyada - Qizil Armiya Fraktsiyasi (lotincha RAF) va yangi natsistlar, Ispaniyada – ETA, Italiyadagi «Qizil brigadalar» va boshqa ko'plab terrorchi tashkilotlar kishilarni terror va zo'ravonlik bilan qo'rqitish, hech qanday gunohsiz, himoyasiz odamlarni vahshiylarcha o'ldirish bilan o'zlarini dunyoga tanitishga urindilar. Hozirgi dunyoda shart-sharoitlarning shiddat bilan rivojlanib borishi terrorizm mohiyatini ham o'zgartirib yubordi. U yangi-yangi vositalar va texnologiya yutuqlaridan foydalanib, kun sayin o'zining qabih va dahshatli kurashi usullarini kuchaytirib boryapti. Ommaviy aloqa vositalari, internetning global tarmog'i terrorchilarning qamrov doirasini ancha kengaytirdi va ularning qonli hamda vahshiy rejalarini amalga oshirishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shuni alohida ta'kidlamok kerakki, u yoki bu qotillik va vahshiylikni amalga oshirgan terrorchilarning nas-roniy, musulmon yoxud yahudiy bo'lishlari jamiyat a'zolariga o'sha din to'g'risida nojoiz fikr va xulosalar chiqarish huquqini bermaydi. Hatto bu hayvonsifat kimsalarning qaysi dinda ekani to'g'risidagi savolnoma bandida «musulmon», deb yozib qo'yilgan bo'lsa ham, ular qilgan jinoyatga «Islom terrorchiligi», deb yorliq yopishtirilishi to'g'ri emas. Xuddi shuningdek, terrorchi o'zini «xristian», deb atasa, «xristian terrorizmi» yoki terrorchi kimsa o'zini «yahudiy», deb e'lon qilsa, «yahudiy terrorizmi» deyish ham mumkin emas.

Zotan birorta ham haqiqiy iymonli kishi, qaysi dindaligidan qat'iy nazar, o'z aqidasi yo'lida begunoh odamlarni o'ldirmaydi. Shuni unutmazlik kerakki, Nyu-York va Vashingtondagi terroristik harakat chog'ida o'ldirilgan odamlar orasida nasroniylar ham, yahudiylar ham, ayni paytda musulmonlar ham bor edi. Insonlarni nohaq o'ldirish ulkan gunoh hisoblanadi va ana shu gunohkor do'zaxning dahshatli azoblariga manguga duchor bo'ladi. Parvardigorining beradigan jazosi va azoblaridan qo'rquvchi chin iymon

egallari bunday yovuzlikka har qanday holatda ham qo'l urmaydilar.

Ana shunday qabih vahshiyliklarni amalga oshirganlar o'zlarining dinga qattiq e'tiqod qo'yganlari haqida qanchalik lof urmasinlar, aslida bu ishlarni odamlar qalbidan diniy monni yo'qotish uchungina qiladilar. O'z-o'zidan ravshanki, ularning maqsadi ilohiy dinni haqoratlash, odamlarni undan chetlashtirish va ularning qalbida iymonli odamlarga nisbatan nafrat va g'azab uyg'otish, xolos. Mohiyatiga ko'ra, gunohsiz odamlarga nisbatan go'yoki «din yo'lida» amalga oshirilgan har qanday zo'ravonlik va zulm ilohiy din ustidan zulm hisoblanadi.

Alloh taolo iymon egallariga sevgi, rahm-shafqat va tinch-lik-osoyishtalikni buyuradi. Terror esa iymonning g'irt aksidir. U o'z oldiga berahmlik, shafqatsizlik, zulm, qotillik va azob-kulfatlarni maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun barcha terrorchilik harakatlarining manbaini xudojo'ylik va iymondan emas, dahriylik hamda bid'atdan axtarish kerak. Bunday holatlarning ildizini fashizm, kommunizm, irqchilik va moddiyunchilikning boshqa shakllari targ'ib qilingan jamiyatlarda ulg'aygan kishilar orasidan izlash darkor. Terrorchilarning ma'lum ismlari hech qanday ahamiyatga ega emas. Agar inson sovuqqonlik bilan begunoh kishilarni o'ldira olibdimi, demak, u iymonli emas, u xudosiz. Bu kimsalar Alloh taoloning jazo-azoblaridan qo'rqmaydigan bo'lib qolgan, ularning yagona maqsadi qon to'kish va odamlarga kulfat-alam keltirish. Shunday ekan, bugungi kunda xalqaro matbuotda tez-tez uchrab turgan «islom terrorizmi» haqidagi da'volar, «yahudiy terrorizmi» yoki «xristian terrorizmi» tushunchalari kabi noto'g'ri va asossizdir. Zero, Islomda ham, boshqa ikki samoviy dinda ham terrorga yoki odamlar ustidan boshqa shakldagi zo'ravonlikka o'rin yo'q. Buning ustiga biz «terror» deb atayotgan harakatlar (ya'ni, hech qanday gunohsiz kishilarga qarshi qilinayotgan jinoyatlar) Islomda ulkan gunoh hisoblanadi va har bir musulmon ana shunday harakatlarga yo'l qo'ymaslik, yer yuzida tinchlik, osoyishtalik va adolat o'rnatish uchun Alloh taolo oldida mas'uldir.

ISLOM – TINCHLIK VA OQIBAT DINI

Din nomidan, uning manfaatlari yo'lida harakat qilyapmiz, degan da'voda bo'lgan ayrim odamlar o'z dinlari ta'limotini tushunib, hayotga noto'g'ri tadbiiq etayotganlari besh qo'lday ayon. Shuning uchun u yoki bu din haqida ana shunday odamlarning xatti-harakatiga qarab baho berib bo'lmaydi. Zero iymon-e'tiqodli bo'lishning haqiqiy yo'li ilohiy kitoblarni, ana shu dinni nozil qilgan Parvardigorning vahiy - ko'rsatmalarini anglab yetish orqali o'tadi.

Insoniyatga islom ne'matini ato etgan ilohiy vahiy - Qur'oni karimning axloqiy asosi oqibat, rahm-shafqat, mehribonlik, kamtarlik, havoyi nafsdan voz kechish, hurmat va tinchlikka asoslangan. Ana shu ilohiy ko'rsatmalarga amal qiluvchi musulmonlar hamisha favqulodda yumshoq fe'lli, rahm-shafqatli, adolatparvar va sofdil bo'ladilar.

Umumlashgan tushunchada «terror» degani u yoki bu ko'rinishda siyosiy maqsadlarga erishish uchun harbiy bo'lmagan ob'ektlarga, tinch aholiga qarshi kuch ishlatishdir. Boshqacha aytganda, hech bir gunohsiz kishilar terrorning nishoni bo'lishadi. Terrorchilar nazdida ana shu odamlarning birdan-bir aybi ularning «boshqa tomonda» bo'lganlaridir. Demak, terror begunoh odamlarga qarshi zo'ravonlikni anglatadi, uni ma'naviy jihatdan hech qachon oqlab bo'lmaydi. Terrorchilarning qilmishlari Gitler yoki Stalinning buyrug'i bilan gunohsiz kishilarni ommaviy ravishda qatl qilishlaridan hech qanday farqlanmaydi. Bularning hammasi insoniyatga qarshi jinoyat hisoblanadi.

«Islom» so'zining ma'nosi Allohga bo'ysunish, itoatni bildirib, uning o'zagi tinchlik, sulh ma'nosidan olingan. Alloh taolo islom aqidasi ni nozil qilish bilan odamlarga bemisl

mehribonchiligini ato qilgan, buyruqlariga bo'ysunganlarga tinchlik, osoyishtalik va farog'at ne'matlarini va'da qilgan. Alloh taolo Qur'oni karimda Yer yuzida yuksak axloq asoslariga rioya qilishga, shaytonning yo'ldan yurmaslikka - zulm qilmaslikka chaqiradi:

«Ey mo'minlar, to'la holdagi Islomga kiringiz! (Ya'ni Islomning ba'zi hukmlariga itoat qilib, ba'zilariga itoat qilmaydigan kimsalardan bo'lmangiz!) Va shaytonning izidan ergashmanglar! Shubhasiz, u sizlarning ochiq dushmaningizdir» (Baqara, 208).

Qur'oni karim ta'limotiga ko'ra, musulmon kishi har bir xatti-harakati uchun Parvardigori oldida mas'uldir, u adolatparvarlik va rahm-shafqat ko'rsatishi, musulmon yoki nomusulmonligidan qat'iy nazar, barcha odamlarga ezgulik olib borishi, ojiz va muhtoj kishilarni asrab-avaylashi va himoya qilishi, boshqalarni «er yuzida buzg'unchilik» qilishdan qaytarishi kerak. Tinchlikka, kishilarning osoyishtaligi va xavfsizligiga rahna soladigan barcha xatti-harakatlar, boshboshdoqlik hamda terrorning jamiki ko'rinishlari buzg'unchilik-fasod ishlar sanaladi. Qur'oni karimda musulmonlarga shunday xabar berilgan:

«Alloh esa buzg'unchilik-fasodni sevmaydi» (Baqara, 205).

Hech qanday gunohi, aybi bo'lmagan odamni o'ldirish buzg'unchilikning eng ulkan ko'rinishi hisoblanadi. Alloh taolo Qur'oni karimda mo'minlarni shunday ogohlantiradi:

«Kimki biron jonni o'ldirmagan va yerda buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak, go'yo barcha odamlarga hayot beribdi» (Moida, 32).

«Boshqa birovni o'ldirmagan va buzg'unchilik qilmagan» odamni o'ldirgan kishi butun insoniyatni o'ldirishga teng ulkan gunohni qilgan bo'ladi. Mutlaqo ravshanki, minglab begunoh kishilarning umriga zomin bo'layotgan terrorchilarning gunohi benihoyadir. Qur'oni karim ta'lim beradiki, har qanday shakldagi zulm va zo'ravonlik Islom aqidasiqa tubdan qarama-qarshidir va bironta musulmon ana shunday jinoyatni sodir etishi mumkin emas. Bundan tashqari musulmonlar Parvardigorlari oldida boshqa odamlarni jinoyat sodir qilishdan qaytarishga mas'uldirlar. Har bir iymonli kishining burchi – «er yuzida buzg'unchilikka» yo'l qo'ymaslik, dunyoda farovonlik va osoyishtalikni qaror toptirish uchun kurashishdan iborat.

Alloh taolo yer yuzida yovuzlik qilmaslikka buyuradi hamda nohaqlik, adolatsizlik, zo'ravonlik, odam o'ldirish, qon to'kishni ta'qiqlaydi. Alloh taoloning ana shu buyruqlariga bo'ysunmaslik yo'lini tutgan kimsalarni Qur'oni karim «Shaytonning izidan ergashganlar» deb ataydi. Mana insonlarni ogohlantirgan Qur'oni karim oyatlari:

«Allohga bergan ahd-paymonlarini mustahkam bo'lganidan keyin buzadigan, Alloh bog'lanishiga buyurgan narsalarni uzadigan va Yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan kimsalar ham borki, ular uchun (Allohning) la'nati bo'lur va ular uchun eng yomon diyori – jahannam bordir» (Ra'd, 25).

«Alloh bergan rizqdan yeb-ichinglar, yer yuzida buzg'unchilik jinoyatlarini qilmanglar» (Baqara, 60).

Parvardigorning irodasiga qarshi borib, begunoh odamlarni o'ldirgan va xo'rlagan kimsalar dunyo hayotida yutuqqa erishamiz, deb o'ylasalar qattiq xato qilgan bo'lar. Alloh taolo yer yuzida har qanday buzg'unchilikni ta'qiqalaydi, yovuzlik yo'lga kirganlarni la'natlaydi. Zero, Qur'oni karimda shunday deyilgan:

«Alloh buzg'unchi kimsalarning ishini o'nglamaydi» (Yunus, 81).

Taassuflar bo'lsinki, bugungi kunda yer yuzining turli burchaklarida gunohsiz odamlarni ommaviy o'ldirish, terror va genotsid holatlarining sanog'iga yetib bo'lmay qoldi. Sun'iy ravishda paydo qilingan to'qnashuvlar bir mamlakat yoki millat ichida qonli to'qnashuvlarga olib kelayapti, odamlarning qoni va ko'z yoshi behisob to'kilyapti. Mutlaqo aniqki, barcha kulfat hamda ko'ngilsizliklarning zaminida tom ma'noda Xudodan qo'rqishning va iymon-e'tiqodning yo'qligi yotibdi, negaki u yoki bu dinning nomidan amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, chin e'tiqod va iymonning qon to'kilishi holatlariga aslo aloqasi yo'q. E'tiqodsizlikda ulg'aygan jamiyat Alloh taoloning jazolashidan qo'rqmaydi, Parvardigorning hisob-kitob kunida har bir kishi dunyo hayotida qilgan amallari uchun javob berishiga va har bir kishi amaliga yarasha mukofot yoki jazo olishiga ishonmaydi. O'z dinlarining asl mohiyatidan bexabarlar har qanday shafqatsizlik va zolimlik, buzg'unchilik va yovuzlikka qodirlar, chunki ularni hech narsa to'xtatolmaydi, Xudoning qahri-g'azabidan qo'rquv ham ularni tiyib qo'ya olmaydi. Qur'oni karimda jinoyat sodir etish maqsadida birlashgan munofiqlar qavmining mavjudligi, Alloh taoloning unga la'natlari, qavmning Alloh nomi bilan va go'yoki aqida uchun harakat qilayotgani alohida eslatiladi. Oyati karimalardan birida Alloh taolo «Alloh nomiga qasam ichib», payg'ambarni o'ldirish rejasini tuzgan to'qqiz kishidan iborat guruh haqida xabar beradi:

«U shaharda (o'zlarini) o'nglamay yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan to'qqiz nafar kimsa bor edi. O'shalar Alloh nomiga qasam ichishib, (bir-birlariga) aytdilar: Albatta (Solihni) va uning ahli-tobe'larini tunda halok qilurmiz, so'ngra uning valiy - homiyiga: «Bizlar (na Solihning va na) uning ahli-tobe'larining halokatiga guvoh bo'lgan emasmiz. Albatta bizlar rostgo'y kimsalardirmiz», deymiz. Ular (Solih va uning tobe'lariga qarshi o'z) makrlarini qildilar. Biz ham ular sezmagani hollarida (ularni halok qilish bilan) bir «mokr» qildik» (Naml, 48-50).

Qur'oni karim iymon egalarini ogohlantiradiki, Parvardigorning nomini tez-tez tilga olish va Uning nomiga qasam ichish kishining iymoni va taqvodorligiga dalil bo'la olmaydi. Buning ustiga ehtimol bu odam zohiridagi xudo jo'ylikning ostiga dahshatli shakkoklik va kufrini, Alloh taoloning amr-farmonlariga va iymonning axloqiy asoslariga tubdan zid bo'lgan kirdikorlarini yashirib qo'ygandir. Agar kimdir Allohning nomi bilan niqoblanib, «er yuzida tartib o'rnatmay, buzg'unchilikni tarqatib» yursa, unda qarshingizda hech qachon iymonga kirmaydigan va Parvardigorga xizmat qilishni maqsad etmagan munofiqlar turgan bo'ladi.

Alloh taoloning irodasiga bo'ysungan, Parvardigorning iqobidan qo'rquvga tushadigan va Islomning chinakam axloqiy asoslarini anglab yetgan kishining shafqatsizlik, haqsizlarcha kuch ishlatish tarafdori bo'lishi va Allohga nomaqbul qandaydir harakatlarda qatnashishini hatto tasavvur qilib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham Islom ta'limoti terrorchilik balosini tag-tomiri bilan tugatish yo'li hisoblanadi. Qur'oni karimning oliy axloqiy amr-farmonlarini anglab yetgan va zimmasiga olgan har bir kishi

odamlar qalbiga tartibsizlik, dushmanlik va nafrat urug'larini sohadigan kimsalarning xatti-harakatlarini hech qachon qo'llab-quvvatlamaydi. Chunki Alloh taolo Qur'oni karimda shunday ogohlantirgan:

«(Oldingizdan) ketganida esa yerda buzg'unchilik, ekin va nasllarni halok qilish uchun yugurib-elib yuradi. Alloh esa buzg'unchilik-fasodni sevmaydi. Qachon unga: «Allohdan qo'rqin», deyilsa, uni kibru havosi gunohga tortadi-etaklaydi. Unga jahannam bas kelar. Naqadar yomon joy-a!» (Baqara, 205-206).

Taqvodor, chinakam iymonli kishi insoniyatga zarar yetkazuvchi har qanday xatti-harakatga ko'z yumolmaydi. Alloh taoloning barhaqligini inkor etuvchi xudosiz kimsa esa johilligi va nodonligi tufayli o'zining jazosiz qolishiga hamda dastining uzunligiga ishonadi va o'z istagiga ko'ra har qanday yovuzlik qilishdan o'zini to'xtatolmaydi. Terrorchilikka qarshi kurash yo'lida zudlik bilan qo'yilishi kerak bo'lgan birinchi qadam – bu jamiyatda ma'rifat, ma'naviy va diniy tarbiyani joriy etish, odamlar ongidagi iymon va dinga bo'lgan xato andoza hamda tasavvurlarni tuzatishdir. Odamlarda taqvodorlik va xudojo'ylikni tarbiyalash, Qur'oni karimda nozil bo'lgan ko'rsatmalarni to'g'ri anglatish orqaligina ana shu baloni daf qilish mumkin.

Alloh ezgulikka buyuradi

Musulmon - butun olamlar Parvardigorining amr-farmonlariga bo'ysunuvchi, Qur'oni karim ko'rsatmalariga og'ishmay amal qiluvchi, dunyoni obod va ko'rkam etuvchi, uning gullab-yashnashi va farovonligi-osoyishtaligi yo'lida xolis xizmat qiluvchi kishidir. Musulmonning maqsadi barcha insonlar manfaati yo'lida ezgu amallar qilish. Alloh taolo «Qasas» surasida iymon egalariga shunday buyuradi:

«Alloh senga ehson qilgani kabi, sen ham (Allohning bandalariga) infoq-ehson qil. Yerda (zulmu zo'ravonlik bilan) buzg'unchilik qilishga urinma. Chunki Alloh buzg'unchi kimsalarni sevmas» (Qasos, 77).

Islomni qabul qilgan kishining maqsadi - Alloh taolo o'zining haq yo'ldagi bandalariga ato etadigan roziligiga, mehribonligiga va abadiy jannatga musharraf bo'lish. Lekin bunga yetishmoq uchun musulmon kishi Parvardigoriga xizmat yo'lida katta tirishqoqlik va qat'iyat namoyish qilishi, o'z qalbida Alloh taologa maqbul bo'ladigan ahloqiy sifatlarni tarbiyalashi kerak bo'ladi. Iymon sohiblarining qalbida xolis rahm-shafqat, mehribonlik, adolatparvarlik, sofdillik, kechirimlilik, kamtarlik, beg'arazlik, fidoiylik, sabr-toqat kabi tuyg'ular shakllangan bo'lishi zarur. E'tiqodli odam barcha kishilarga ochiq ko'ngil bilan, mehr-shafqat ko'rsatib muomala qilishi, ezgu, solih amallarni ko'proq bajarishga shoshilishi, solih amallarni ko'proq qilishda dindosh birodarlari bilan musobaqalashishi kerak. Alloh taolo Qur'oni karimda buyuradiki:

«Ota-onangizga hamda qarindosh-urug', yetim va miskinlarga, qarindosh qo'shni va begona qo'shniga, yoningizdagi hamrohingizga, yo'lovchi va musofirga va qo'llaringizdagi qullaringizga yaxshilik qilingiz! Albatta, Alloh mutakabbir va maqtanchoq kimsalarni sevmaydi» (Niso, 36).

«Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qilingiz, gunoh va haddan oshish yo'lida hamkorlik qilmangiz! Allohdan qo'rqingiz! Shubhasiz, Allohning azobi qattiqdir!» (Moida, 2).

Qur'on oyatlaridan ko'rinib turibdiki, Alloh taolo odamlarga yaxshilik va hurmat-ehtirom ko'rsatishga, solih amallar qilishda bir-biriga yordamlashishga, badniyatlik va janjal-g'avg'olardan chekinishga buyuryapti. Alloh taolo solih bandalariga O'zining mukofotini va'da qilyapti: «Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar qilib (qaytarilur)», lekin kim yer yuzida yovuzlik qilib yursa, muqarrar jazosini oladi:

«Kim biron yomon ish qilsa, faqat o'shaning barobarida jazolanur va ularga zulm qilinmas» (An'om, 160).

Qur'on adolatga targ'ib qiladi

Alloh taolo Qur'oni karim orqali bildirgan haqiqiy adolat odamlarni yaxshi-yomonga ajratmay, har bir kishining huquqlarini himoya qilishga, har qanday holatda ham haqsizlik va zulmga rozi bo'lmaslikka, hamisha mazlumlar tarafida turib, ularning zolimlarga qarshi manfaatlarini himoya qilishga buyuradi. Qur'onda bayon etilgan oliy haqqoniyat har bir voqeaga har tomonlama baho berish, xolis va adllik bilan yondoshishni, sofdillik, rahm-shafqat, beg'arazlik va sabr-toqatni talab etadi. Chunki his-tuyg'ular va ehtirosga qul bo'lib qolgan odam voqealarni xolis, har tomonlama mulohaza bilan baholay olmaydi, to'g'ri qarorga kelolmaydi va o'z his-tuyg'ularining ta'siri ostida qoladi. Qur'onda buyurilgan haqqoniyatga rioya etuvchi inson o'zining shaxsiy ehtiroslari va mulohaza-fikrlarini o'ylamasligi kerak. Chunki har yerda va har qachon haqiqatni himoya qilish uchun Alloh taolo oldida mas'uliyatni his etish va oliy haqqoniyatga xizmat etish yo'lini tanlagani uchun u har qanday sharoitda ham or-nomus, adolatdan chekinmaydi. Iymonli kishining axloqiy sofligi shunchalar oliy bo'lishi kerakki, qarshisida turgan odamning talab va ehtiyojlari o'zining shaxsiy manfaatlaridan ancha ustun bo'lishi kerak. Musulmon kishi hatto o'ziga zarar bo'lsa ham, adolatga rioya qilishda Alloh taolo oldida mas'uldir. Niso surasining 58-oyatida Alloh taolo odamlar orasida hukm qilganda adolat bilan hukm qilishga buyuradi. Alloh taolo iymon egalariga, hatto o'zlari, qarindosh-urug'lari va yaqinlari zarariga guvohlik berishga to'g'ri kelsa ham, adolatli bo'lishga buyuradi:

«Ey mo'minlar, adolat bilan turguvchi hamda o'zlaringning yoki ota-ona, qarindosh-urug'larning zarariga bo'lsa-da Alloh uchun to'g'ri guvohlik beruvchi bo'linglar. U (ya'ni guvohlik beriluvchi) boy bo'ladimi, kambag'al bo'ladimi, har ikkisiga ham Allohning O'zi (sizlardan ko'ra) yaqinroqdir. Bas, adolat qilmasdan nafi havoga ergashib ketmanglar. Agar tillaringni burib (noto'g'ri guvohlik bersanglar) yoki (guvohlik berishdan) bosh tortsanglar, albatta Alloh qilayotgan amallaringizdan xabardor bo'lgan zotdir» (Niso, 135).

Alloh taolo Qur'on orqali hayotga tadbiiq etishni amr etgan oliy adolat, yer yuzidagi odamlarning milliy, irqiy va diniy mansubligidan qat'iy nazar, barchaga barobardir. Qur'on adolati zamon, makon yoki odamga qarab o'zgarmaydi. Bugungi kunda yer kurasining turli burchaklarida odamlar qaysidir millat, qabila va jamoaga mansubliklariga qarab yoki terisining rangi tufayligina shafqatsizlik, zo'ravonlik hamda haqsizlikka duchor bo'lmoqdalar. Holbuki, Qur'oni karim axloqi ta'kidlaydiki, Alloh taolo yer yuzidagi

turli qavmlar va irqnlarni bir-biri bilan dushmanlik qilish uchun emas, balki bir-birlari bilan tanishib-aloqa qilishlari uchun yaratgan. Turli irq va qavmlarning birgalikda ahil yashashi Parvardigorimiz tomonidan bizlarga ato etilgan ulug' ne'matdir, aslo urush va to'qnashuvlar uchun bahona emas. Dunyoning bu xilma-xilligi Alloh taolo yaratgan behisob va son-sanoqsiz hayot go'zalliklarining birigina xolos. Qur'on aytadiki, odamlarning qavmiy jihatdan turli-tumanligi hech qanday ahamiyatga ega emas. Alloh taolo amr etgan haqqoniyat - istisnosiz hamma odamlarga bir xil, ochiqko'ngillilik, izzat-ehtirom bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi.

Biror kishiga yoki butun bir xalqqa nisbatan nafrat tuyg'usi ana shunday kayfiyatdagi odamga sog'lom va beg'araz fikr yuritish, haqqoniy va adolatli qarorga kelish imkonini bermaydi. Tom ma'nodagi e'tiqod hamda iymondan uzoq bo'lgan jamiyatlarda bunday hodisalar tez-tez uchrab turadi. Odamlar o'z g'animlari deb hisoblaydigan kishilarga nisbatan har qanday buzg'unchilik va adolatsizlikni osongina, vijdonlari ozor chekmagan holda qilaveradilar. Xuddi shu sababdan ham jaholat hukmron bo'lgan jamiyatlarda kishilar bir-birlariga bo'lgan munosabatda ishonch va xolislik, beg'arazlikni amalda yo'qotib qo'yadilar. Ularning hayoti doimiy qo'rquv, notinchlik va o'zga tomonning yovuzligi, sotqinligini xavotir ichra kutib kechyapti. Oqibatda kishining boshqalarga ishonchsizligi vaqt o'tishi bilan Alloh taolo ato etgan o'zaro yordam, rahm-shafqat, ezgulik va birodarlik kabi chin insoniy fazilatlarini uning qalbidan o'chirib yuboradi va odamlar bir-birlariga tushunib bo'lmaydigan nafrat ko'zi bilan qaray boshlaydilar. Shu bilan birga haqiqiy iymonli kishi boshqa kishi yoki jamiyatga nisbatan salbiy his-tuyg'ularining o'zi qabul qilayotgan qarorga ta'sir o'tkazishiga hech qachon yo'l qo'ymaydi. Iymonli kishi qarshisida turgan kishi qanchalik axloqsiz bo'lmasin yoki u tanlagan hayot yo'li nechog'li noto'g'ri bo'lmasin, qaror qabul qilishga to'g'ri kelib qolsa, shaxsiy his-tuyg'ularini bir chetga surib, adolatli yo'l tutadi, odilona qarorga keladi va boshqalarda ham adolatga rag'bat uyg'otadi. Uning tuyg'ulari va ehtirolari hech qachon aql-idrok hamda vijdondan ustun kelmaydi, zero musulmonning vijdoni hamisha unga Allohning amr-farmonlariga og'ishmay rioya etish majburiyati haqida eslatib turadi. Chunki Qur'onda shunday deb buyurilgan:

«Ey mo'minlar, Allohning o'zi uchun haq yo'lni tutguvchi, adolat bilan shahodat-guvohlik beruvchi bo'lingiz! Biron qavm-ni yomon ko'rishingiz sizlarni adolat qilmaslikka tortmasin! Adolat qilingiz! Shunisi taqvoga yaqinroqdir. Allohdan qo'rqingiz! Albatta, Alloh qilayotgan amallaringizdan xabardordir» (Moida, 8).

Qur'on da'vati musulmondan haqiqiy adolatni talab etadi. Iymonli kishi esa hayotining har lahzasida Parvardigoriga maqbul bo'ladigan amallarni qilib yursagina Alloh taoloning ajr-mukofotlarga munosib bo'lishini biladi. Bundan tashqari ana shu kishining axloqiy fazilatiga guvoh bo'lgan har bir odamda unga nisbatan ishonch paydo bo'ladi, uning huzurida o'zini xotirjam his qiladi va har qanday mas'uliyatli ishini unga topshira oladi. Bunday odamlar hatto o'zining dushmanlari hurmatini ham qozona oladi. Buning ustiga iymon-e'tiqod va adolatparvarlikdagi qat'iylik boshqa odamlarning iymonga kelishlarida ibrat va sabab vazifasini o'taydi.

Islom hurfikrlikni himoya qiladi

Islom ta'limoti odamlar hayoti va hurfikrlliligini himoya qiladi, musulmonlarga boshqa kishiga nisbatan yomon gap aytishni, g'iybat va tuhmat qilishni, hatto noxolis fikrga

borishni ta'qiqalaydi, odamlar o'rtasida adovat va ixtiloflarni to'xtatishga buyuradi. Islom jismoniy zo'ravonlik va vahshiylikning barcha ko'rinishlarini ham, odamlarga nisbatan ozginagina g'oyaviy bosim o'tkazishni ham birday man' etadi.

«Dinga zo'rlab (kiritish) yo'qdir. (Zero) haq yo'l zalolatdan ajrab bo'ldi»
(Baqara, 256)

«Bas (ey Muhammad), siz pand-nasihat qiling! Zotan siz faqat pand-nasihat qilguvchidirsiz, xolos» (G'oshiya, 21).

Odamlarni dinga yoki diniy ko'rsatmalarni bajarishga zo'rlash Islomning mohiyati va ruhiga mutlaqo ziddir. Zero Islom aqidasi ko'ra, chinakam iymonga xohish-iroda va vijdon amri bilangina kelish mumkin. Albatta, musulmonlar Qur'oni karimda bayon etilgan axloqiy asoslarni hayotga tatbiq etish zarurati to'g'risida bir-birlarini rag'batlantirishlari, ogohlantirishlari yoki eslatishlari mumkin. Qur'oni karimning axloqiy ko'rsatmalarini odamlarga tushuntirish har bir dindor odamning burchidir. Musulmonlar Alloh taoloning amriga bo'ysunib, o'z dinlari haqida odamlarga bilim tarqatishadi:

«Parvardigoringizning yo'li – diniga donolik-hikmat va chiroyli pand-nasihat bilan da'vat qiling» (Nahl, 125).

Lekin shu bilan birga boshqa amrni ham doimo yodda tutishadi:

«Ularni hidoyat qilish sizning zimmangizda emas (ey Muhammad). Balki Alloh o'zi istagan kishilarni hidoyat qiladi» (Baqara, 272). Haqiqiy musulmon kishi hech qachon zo'rlikka murojaat qilmasligi, odamlarga moddiy va ma'naviy bosim o'tkazmasligi kerak.

«Sizlarning diningiz o'zlaringiz uchun, mening dinim o'zim uchundir» (Kofirun, 6).

Dunyoda yashayotgan ko'p sonli xalqlar turli dinlar va aqidalarga: nasroniylik, yahudiylik, buddaviylik, hindukiylik, butparastlik va majusiylik kabilarga mansubdir. Bu dunyoda har bir musulmon ularning qaysi dinga mansubligidan qat'iy nazar, barcha odamlarga hurmat, murosa, avf va adolat, muhabbat va rahm-shafqat ko'rsatishga Alloh taolo huzurida mas'uldir. Alloh taolo tomonidan iymon egalari zimmasiga Islom diniga yaxshilik, omonlik va hurmat bilan da'vat qilish yuklatilgan. Dinga kiradimi yoki yo'qmi, o'ziga yetkazilayotgan da'vatga bo'ysunadimi yoki undan tiyilib turadimi, bu haqda qarorga kelish da'vat qilinayotgan tomonning to'la ixtiyoridadir. Biror kishini dinga zo'rlash, biror narsani majburan uning zimmasiga yuklash Qur'oni karim da'vatiga ziddir. Alloh taolo Qur'oni karimda mo'minlarga shunday deydi:

«Agar Parvardigoringiz xohlasa edi, butun Yer yuzidagi barcha kishilar iymon keltirgan bo'lur edilar. Axir siz odamlarni mo'min bo'lishga majbur qilurmisiz?»
(Yunus, 99).

«Biz ular (kofirlar) aytayotgan so'zlarni juda yaxshi bilurmiz. (Ey Muhammad), siz ularning ustida (dinu iymonga) zo'rlaguvchi emassiz. Bas, ushbu Qur'on bilan Mening va'damdan qo'rqadigan kishilarga pand-nasihat qiling!» (Qof, 45).

Din-e'tiqod talablariga rioya qilishga odamlar majburlanadigan jamiyat shakli Islomga tubdan qarama-qarshidir. Chunki inson Allohga xohish-irodasi va vijdon amri bilan yuzlangandagina din va e'tiqod qiymatga ega bo'ladi. Agar u yoki bu ijtimoiy tizim odamlarni dinga va diniy ko'rsatmalarga rioya etishga majburlasa, unda odamlarning xudojo'yiligi hokimiyatdan qo'rqishgagina asoslangan bo'ladi. Biroq Alloh taolo dinga faqat ochiq vijdon bilan, O'z roziligi yo'lida xizmat qilish uchungina kirishni amr etadi.

Alloh begunoh odamlarni o'ldirishni ta'qiqlaydi

Qur'oni karimda bir odamni nohaq o'ldirish ulkan gunoh (gunohi kabira) sanaladi:

«Kimki biron jonni (o'ldirmagan) va yer yuzida buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak, go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak, go'yo barcha odamlarga hayot beribdi (Moida, 32).



«Ular Alloh bilan birga boshqa biron ilohga iltijo qilmaslar va Alloh (o'ldirishni harom qilgan) biron jonni nohaq o'ldirmaslar hamda zino qilmaslar. Kim mana shu (gunohlardan birontasini) qilsa, uqubatga duchor bo'lur» (Furqon, 68).

Alloh taolo kishilarni nohaq o'ldirganlarga Parvardigorning ulkan jazosi tayyorlab qo'yilgani haqida ogohlantiradi. Alloh barcha kishilarni ogohlantiradiki, bir kishini o'ldirish yer yuzidagi hamma odamni o'ldirilganiga teng keladigan og'ir gunohdir. Ulug' Parvardigor tomonidan belgilab qo'yilgan had-chegaralardan chiqmaydigan taqvoli odam hatto bir kishiga zarar yetkazishdan ham qo'rqadi. Bu dunyoda adolat va jazodan qutulib qolaman, deb go'llarcha o'ylaydiganlar, narigi abadiy dunyoda qilmishlari uchun Parvardigor huzurida javob berishdan, achchiq intiqom va dahshatli azoblardan qochib bo'ptilar! Huddi shuning uchun ham hayotlarining har lahzasida o'limning haqligini, Parvardigor huzurida hisob-kitob borligini eslab turuvchi mo'minlar Alloh taolo o'rnatgan hadlarga rioya qilishda katta sa'y-harakat ko'rsatadilar.

Alloh mo'minlarga rahm-shafqatli va mehr-muruvvatli bo'lishni buyuradi

Qur'on oyatlaridan birida chinakam musulmonning ma'naviy qiyofasi shunday tavsiflanadi:

«So'ngra u (maqtanchoq kimsa) iymon keltirgan va bir-birlariga sabr-qanoat qilishni tavsiya etgan, bir-birlariga mehr-muruvvat ko'rgizishni tavsiya etgan zotlardan bo'lmadi. Ana o'sha (ya'ni, maqtanchoq kimsaga yot yuqoridagi fazilatlarga ega bo'lgan) zotlar o'ng tomon egalaridir» (Balad, 17-18)

Alloh taoloning marhamatidan umidvor bo'lgan, qiyomat kunidagi hisob-kitobdan najot topishga intilgan va jannatdagi abadiy hayotni istagan mo'minlarning o'zlarida tarbiyalashlari zarur bo'lgan muhim axloqiy xislatlardan biri oyati karima buyurganiday «mehr-muruvvat ko'rgizish»dir.

Chinakam mehr-muruvvatning manbai – Allohni sevish. Insonning Parvardigoriga

muhabbati uning qalbida samimiylik va Alloh taolo yaratgan barcha mavjudotlarga nisbatan g'amxo'rlik tuyg'ularini uyg'otadi. Parvardigorini sevgan inson Uning barcha maxluqlariga ruhiy yaqinlik va muhabbat bilan munosabatda bo'ladi. Alloh taologa sodiqlik va muhabbat mo'minni, Qur'oni karim buyurganiday, yer yuzidagi barcha odamlarga nisbatan ezgulik va omonlikda munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu uning qalbida chinakam mehr-muruvvat tuyg'ularini uyg'otadi. Muhabbat, mehr-muruvvat va fidoyilik bilan yo'g'rilgan musulmonning ma'naviy qiyofasi Qur'oni karimda shunday tavsiflanadi:

«Ulardan (muhojirlardan) ilgari (Madina) diyoriga o'rnashgan va iymon-e'tiqodni (mahkam ushlagan) zotlar (ansorlar) esa o'zlari (ning yonlari)ga hijrat qilib kelgan kishilarni suyarlar va dillarida ularga (muhojirlarga) berilgan narsa-o'ljalar sababli biron hasad tuymaslar hamda garchi o'zlarida ehtiyoj bo'lsada, o'zlarini qo'yib (o'zgalarni) iysor-ixtiyor qilurlar. Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, ana o'shalar najot topguvchi zotlardir» (Hashr, 9).

«Albatta, sadaqalar (ya'ni zakotlar) Alloh tomonidan farz bo'lgan holda, faqat faqirlarga, miskinlarga, sadaqa yig'uvchilarga, ko'ngillari (Islomga) oshno qilinuvchi kishilarga, bo'yinlarni (qullarni) ozod qilishga, qarzdor kishilarga va Alloh yo'lida hamda yo'lovchi musofirlarga berilur. Alloh bilim va hikmat sohibidir» (Tavba, 60).

Oyatda tilga olingan mo'minlarning yaxshi fazilatlari Allohga bo'lgan chuqur sevgi sharofatidandir. Ular Parvardigorlari Qur'oni karim orqali amr etgan axloqiy fazilatlarga erishmoqqa chin dildan harakat qiladilar. Iymon egalari bironvga rahm-shafqat yoki yordam ko'rsatsalar, bunga minnatdorchilik so'zlari aytilishini ham istashmaydi. Ularning maqsadi - o'zlarining solih amallari, ezgu harakatlari bilan Alloh roziligini topish. Chunki mo'minlar qiyomat kuni faqat dunyo hayotidagi qilgan ishlari uchun hisob berish uchun Parvardigorlari huzuriga chaqirilishlarini yaxshi bilishadi.

Alloh taolo tomonidan Qur'oni karimda bayon etib berilgan musulmonning ma'naviy qiyofasi rahm-shafqat va ezgulik bilan farqlanadi. Ana shunday tarbiyalangan kishi kimdir zulm va buzg'unchilik qilsa yoki tinch, begunoh odamlarga nisbatan shafqatsizlik ko'rsatsa bir chetda tomoshabin bo'lib turolmaydi. Haqiqatda terror va Qur'on da'vati mutlaqo bir-biriga qarama-qarshi tushunchalardir. Terrorchi - dunyoga nafrat va xusumat urug'larini sepib yuruvchi berahm va shafqatsiz odam, uning maqsadi - o'ldirish, yo'q qilish, qon to'kish.

Alloh sabr-toqat va kechirimli bo'lishni buyuradi

A'rof surasining 199-oyatida Parvardigorimizning «marhamatli bo'ling, yaxshilikka buyuring», degan amr-farmoni orqali bag'ri kenglikka, kechirimli bo'lishga da'vat islomning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Islomning butun tarixi aqidaning ana shu asosiy tamoyilini jamiyatning ijtimoiy hayotiga joriy qilishning yorqin misoli bo'la oladi. Keyingi boblarda jahon tarixida musulmonlarning dinlararo behisob to'qnashuvlar va birodarkushlik urushlaridan azob chekib yotgan yangi yerlarga ozodlik, tinchlik va diniy erkinlik olib kelgan ma'lum davrlari va bosqichlari haqida so'z yuritimiz. Islom turli madaniyatlar, til oilalari va diniy konfessiyalarga mansub xalq-larga bir samo ostida tinch va osoyishta hayotni ta'minlab berdi. Usmonlilar imperiyasi 700 yil mobaynida birorta ham millatlararo to'qnashuvlarsiz

ulkan jo'g'rofiy kengliklarda o'zining qudratli davlatini saqlab qolish bilan birga, o'z tarkibiga kirgan son-sanoqsiz xalqlarga diniy erkinlik, tinchlik, osoyishtalik, o'z dinlariga bema'lol e'tiqod qilish muhitini yaratib bera oldi. Islom aqidasi nozil qilingan birinchi yillardanoq musulmonlar marhamatli va rahm-shafqatli dindorlar sifatida nom qozonishdi, ular hamisha eng adolatli hukmdorlar bo'lishgan. Ko'p millatli musulmon davlatlari tarkibidagi barcha etnik guruhlar o'z dinlariga e'tiqodda hamisha erkin bo'lishgan, buning ustiga qavmlari hayotini o'z dinlarining huquqiy va diniy qonunlariga binoan qurish huquqiga ega bo'lishgan.

Musulmonlarga xos bo'lgan haqiqiy diniy erkinlik Alloh taoloning haq amr-farmonlariga binoan hayotga tadbiiq etilgandagina insoniyatga tinchlik va osoyishtalik olib keladi. Bu haqiqat Qur'oni karimda bayon etib qo'yilgan:

«Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo'lmas, siz (har qanday yomonlikni) eng go'zal so'zlar bilan daf' qiling! (Shunda) banogoh siz bilan o'rtalaringizda adovat bo'lgan kimsa qaynoq - sodiq do'st kabi bo'lib qolur» (Fussilat, 34).

Alloh taolo mo'minlarga ko'p martalab xabar beradiki, kechirimli bo'lish va rahm-shafqat insonning haqiqiy xislati hisoblanadi hamda o'zida ana shu axloq qirralarini tarbiyalay olgan kishi Parvardigorning yuksak ajr-mukofotlariga sazovor bo'ladi:

«...(har qanday) yomonlikning jazosi xuddi o'ziga o'xshagan yomonlikdir (ya'ni har bir yomonlikning o'ziga yarasha jazosi bordir). Endi kim (intiqom olishga qodir bo'lgani holda) afv qilib (o'rtani) tuzatsa, bas uning ajri Allohning zimmasidadir. Albatta, U zulm qilguvchilarni sevmas» (Sho'ro, 40).

Alloh taolo Qur'oni karimda yana shunday xabar beradiki, inson hatto ochiq-oydin adolatsizlik qilsa ham afv-kechirimli, marhamatli bo'lish mo'minlarga xos fazilat hisoblanadi. Alloh taolo Qur'oni karim oyatlari orqali shunday deb marhamat etadi:

«(Ey Muhammad), siz mudom ular tarafidan qilingan biron xiyonat ustidan chiqasiz. Magar ulardan (Islomni qabul qilgan) ozchilik kishilargina xiyonat qilmaydilar, xolos. Bas, ularni afv etib, kechirib yuboravering. Albatta, Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi» (Moida, 13).

Islom mo'minlarga amr etgan axloqiy sifatlar eng ulug' fazilatlar hisoblanadi va insoniyatga tinchlik, osoyishtalik, adolat olib keladi. Ayni paytda hozir terror deb atalayotgan vahshiylik – bu qotillar, johil mutaassiblarning ishi bo'lib, uning Qur'oni karim da'vatiga hech qanday aloqasi yo'q. O'zlarining qonli yovuzliklarini din sofligi uchun kurash niqobi ostida amalga oshirishga urinayotgan terrorchilarning vahshiyligiga qarshi ma'rifat vositasida kurash olib borishning yagona yo'li - odamlarda Qur'oni karimning haqiqiy da'vati va axloqiy ko'rsatmalarini tarbiyalashdir. Boshqacha aytganda, Islom ta'limoti va Qur'on da'vati bu aslo terror mafkurasining paydo bo'lish manbai emas, balki terrorchilikni hodisa sifatida tag-tomiri bilan tugatish yo'lidir.

QUR'ON URUSH HAQIDA

Qur'oni karim ta'limotiga ko'ra, urush nomaqbul, ilojsiz zaruriyat hisoblanib, unga mutlaqo muqarrarlik holatidagina, aniq belgilab qo'yilgan axloqiy va insonparvarlik qonunlari va hadlarga qat'iy rioya qilingan hollardagina murojaat qilish kerak bo'ladi.

Alloh taolo Qur'oni karim oyatlaridan biri orqali mo'minlarni ogohlantiradiki, yer yuzida urush olovini yoqa-yotganlar xudosiz kimsalardir va Alloh urushni ma'qullamaydi:

«Ular qachon (sizga qarshi) urush olovini yoqsalar, Alloh uni o'chirur. Ular yerda buzg'unchilik qilib yururlar. Alloh esa buzg'unchi kishilarni sevmas» (Moida, 64).

Qandaydir ixtilof paydo bo'lib qolgan hollarda musulmonlar toki majburiy zaruratga aylanmaguncha urush boshlay olmaydilar. Ular qarshi tomon hujumga o'tgandagina, mojaroni hal etishning harbiy usulidan boshqa yo'l qolmagandagina urushga kiradilar. Bu holat haqida Qur'oni karim shunday deydi:

«Endi agar to'xtasalar (kufrdan kechib, Islomga kirsalar), bas, albatta, Alloh kechirguvchi, rahmlidir» (Baqara, 192).

Mo'min-musulmonlar ixtilofga borgan tomon bilan sulh, bitimga kelish va tinch yo'lni tanlashga majburdilar, ular tinchlikni urushdan afzal ko'radilar va qarshi tomon hujumga o'tgan paytda, mudofaa uchungina urushga kira oladilar.

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) faqat zaruriy hollardagina, shunda ham o'z qavmini himoya qilishning boshqa usuli qolmaganda va mudofaa harakatlari olib borish maqsadida urush boshlash qarorini qabul qilganlar.

Qur'oni karimning nozil bo'lishi (tushishi) roppa-rosa 23 yil davom etdi. Shuning avvalgi o'n uch yilida Makka mushriklari o'rtasida musulmonlar ozchilikni tashkil etar va ular mushriklar tomonidan qattiq ta'qib va tahqir qilinardi. Ilk musulmonlarning ko'pchiligi jismoniy qiynoqlarga solindilar, o'ldirildilar, uylari va mol-mulklari tortib olindi, ular doimiy haqorat va do'q-po'pisalarga duchor bo'ldilar. Ana shunday munosabatga qaramay, musulmonlar kuch ishlatishga, zo'ravonlikka o'tganlari yo'q, hamisha makkalik mushriklarni sulhga va haqiqiy iymonga da'vat etaverdilar.

Butparastlarning tazyiq-po'pisalari musulmonlar qabilasiga jismoniy xavf tug'dira boshlaganda musulmonlar Makkani tashlab chiqib, Yasrib shahriga (keyinchalik u Madina deb ataldi) borib o'rnashdilar va shahar aholisining erkin va do'stona muhitida yangi qavm tashkil eta boshladilar. Musulmonlar keyinchalik siyosiy tartiblar o'rnatib, haqiqiy kuch to'plaganlarida ham Makka mushriklarining yovuzlarcha hujumlariga qarshi urush boshlamadilar. Faqat Alloh taolo Payg'ambarga (s.a.v.) quyidagi oyatlarni nozil qilgandan keyingina Rasululloh o'z sahobalariga urushga tayyorgarlik ko'rishga buyruq berdilar:

«Hujumga uchrayotgan zotlarga mazlum bo'lganlari sababli (jang qilish) izni berildi. Albatta, Alloh ularni g'olib qilishga qodirdir. Ular o'z diyorlaridan faqatgina «Bizning parvardigorimiz (yagona) Allohdir», deganlari uchun quvilgan zotlardir» (Haj, 39-40).

Alloh butparast mushriklar tomonidan kelgan shafqatsiz hujum va zulmlar sababidagina musulmonlarga urush boshlashga ijozat bergan. Boshqacha qilib aytganda, himoyalaniq maqsadida urushishga ruxsat etilgan. Qur'oni karim musulmonlarni ogohlantiradiki, ular barcha kuch-imkoniyatlarini ishga solib, keraksiz kuch ishlatishdan tiyilishlari va fitnaga uchmasliklari kerak:

«Sizlarga qarshi urushuvchilar bilan Alloh yo'lida jang qilingiz va tajovuzkor bo'lmangiz! Shubhasiz, Alloh tajovuzkorlarni sevmaydi» (Baqara, 190).

Alloh taolo mo'minlarga ushbu vahiyini nozil qilgandan so'ng musulmonlar va arablarning majusiy (mushrik) qabilalari o'rtasida bir qancha janglar bo'lib o'tdi. Lekin ularning birortasi ham musulmonlar sababchi bo'lib boshlangani yo'q. Bundan tashqari, Muhammad (s.a.v.) mushriklar bilan sulh shartnomasini (Hudaybiya bitimi nomi bilan mashhur) imzolab, butparastlarning ko'pgina shartlariga ko'ndilar va musulmonlar bilan mushriklarning tinchlik-osoysishtalikda yashashlarini kafolatlovchi tinch, xavfsiz ijtimoiy tuzumni ta'minlab berdilar. Oradan biroz vaqt o'tgandan keyin mushriklar shartnomani buzishdi va ana shunday vaziyatda urush harakatlari qaytadan boshlanib ketdi. Biroq musulmonlar sonining shiddatli o'sishi tufayli Islom lashkari yengilmas kuchga aylandi va payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ana shu qo'shinga bosh bo'lib, Makkaga kirib bordilar. Shaharning fath etilishi bir tomchi qon to'kilmay, birorta odam aziyat chekmay amalga oshdi. Agar Payg'ambar (s.a.v.) xohlaganlarida musulmonlar boshiga cheksiz kulfat-uqubatlarni solgan mag'lub shaharning mushrik qabila boshliqlaridan o'ch olishlari mumkin edi. Lekin u zot ularga qarshi hech qanday chora ko'rmadilar, kechirgan holda ozodlikka chiqarib, o'z dinlariga itoat qilish huquqini ham saqlab qoldilar. Payg'ambarning (s.a.v.) ana shu marhamatidan hayratga tushgan mushriklar keyinchalik o'z ixtiyorlari bilan Islomni qabul qilishdi.

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davrlarida faqatgina Makka emas, balki boshqa barcha shaharlar fathida ham tinch aholining, hech bir aybi yo'q, himoyasiz odamlarning huquqi qattiq himoya qilingan. Rasululoh (s.a.v.) mo'minlarga bag'rikeng bo'lishlikni ko'p marta eslatib turganlar va o'zlari ham namuna bo'lganlar. Janglardan biri oldidan u zot mo'minlarga shunday buyurganlar: «G'azotga Alloh elchisining haqiqiy dini uchun chiqinglar! Lekin keksalar, ayollar va bolalarga tegmanglar! Yaxshilik va ezgulik qiluvchilardan bo'lingiz! Alloh taqvodorlarni sevadi». Boshqa bir rivoyatda Allohning rasuli urush paytidagi ochiq xarbiy harakatlarda musulmonlarning xulqi qanday bo'lishi lozimligini shunday bayon etganlar: «Bolalarni o'ldirmang. Cherkovlarda ibodat qilishga o'zini bag'ishlagan kishilarga tegishdan saqlaning. Ayollar va qariyalarni o'ldirmang. Daraxtlarni kesmang va yoqmang. Uylarni vayron qilmang!»

Payg'ambar Muhammadning (s.a.v.) tinchliksevar siyosati Qur'oni karim orqali nozil qilingan Islom ta'limotining asoslaridan kelib chiqadi. Alloh taolo ilohiy vahiyda mo'minlarni Islom dinida bo'lmagan kishilarga yaxshi munosabatda bo'lishga buyuradi:

«Alloh sizlarning dinlaringiz to'g'risida sizlar bilan urushmagan va sizlarning o'z diyoringizdan haydab chiqarmagan kimsalarga yaxshilik qilishlaringizdan va ularga adolatli bo'lishlaringizdan qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qilguvchilarni sevar. Alloh sizlarni faqat dinlaringiz to'g'risida sizlar bilan urushgan va sizlarni o'z diyoringizdan haydab chiqargan hamda sizlarni haydab chiqarishda bir-birlariga yordamlashgan kimsalar bilan do'stlashishdan qaytarur» (Mumtahana, 8-9).

Qur'oni karim musulmon kishining nomusulmon odamga munosabatini aniq belgilab beradi; musulmon barcha odamlarga yaxshilik qiladi, faqat Islomga dushmanlik kayfiyatida bo'lganlarnigina do'st tutmaydi. Agar musulmonlarga dushman bo'lgan odamlar ularning joni va moliga qasd qilsalar va bu holat urush keltirib chiqargudek bo'lsa, musulmonlar bu urushni adolat bilan, barcha insoniylik qonunlariga rioya qilgan

holda olib borganlar. Musulmonlarga majburiyat zarurati bo'lmagan holda zulmning barcha turlari va adolatsiz kuch ishlatish ta'qiqlanadi.

«Jihad» tushunchasining ma'nosi

Biz o'rganayotgan masala zaminida ochiq-oydin tushunib olishimiz kerak bo'lgan Islomning yana bir muhim qoidalaridan biri «jihad» tushunchasidir. «Jihad» so'zining lug'aviy ma'nosi «intilish», «harakat qilish» degan tushunchalarni anglatadi. Islom aqidasi ko'ra, «jihad qilish» degani «jihdu jahd», ya'ni biror ishga azmu qaror qilish demakdir. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) mo'minlarga «eng ulug' jihad – insonning o'z nafsiga qarshi olib borgan jihodidir», deb ta'lim berganlar. «Nafs» deganda kishining ochko'zligi, qabih, xudbinlarcha ehtiroslarini tushunmoq kerak.

Adolat, tinchlik va o'zaro tenglik o'rnatish uchun, odamlarga nisbatan adolatsizlik qilayotgan, ularni xo'rlayotgan, zulm va shafqatsizlik ko'rsatayotgan, insonning qonuniy haq-huquqlarini poymol qilayotgan kimsalarga qarshi g'oyaviy kurash olib borish ham jihad hisoblanadi.

Xuddi shu yo'sinda dinga qarshi bo'lgan, dahriyona va xudosizlikka asoslangan ta'limotlar bilan har qanday ko'rinishda g'oyaviy kurash olib borish ham tom ma'noda jihoddir.

Bu holatning g'oyaviy va ma'naviy jihatlari bilan bir qatorda urush olib borish jismoniy kurash sifatidagi jihad hisoblanadi. Lekin bu urush yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, Qur'on ta'limotiga muvofiq faqat himoyalani uchun bo'lishi va bunda islomning axloqiy asoslariga qat'iy rioya qilgan holda olib borilishi darkor. Jihad tushunchasidan hech bir gunohsiz odamlarga qaratilgan zulm-zo'ravonlikning har qanday shakllari sifatida foydalanish, aniqrog'i terror eng ulkan adolatsizlik va haqiqatni buzib ko'rsatish hisoblanadi.

Qur'on suiqasdni ta'qiqlaydi

Islom aqidasi muvofiq tushuntirilishi lozim bo'lgan, jahonda keyingi paytda sodir bo'layotgan fojiali voqealardan biri yakka tartibdagi terrorchilik xatti-harakatlaridir. So'nggi paytlarda ommaviy axborot vositalarida islom va iymondan mutlaqo bexabar kimsalarning nodonlarcha va xato bayonotlari paydo bo'lib qoldi. Ularning ta'kidlashicha, tinchliksevar Islom dini o'zlarini o'limga mahkum etayotgan terrorchilarning xatti-harakatlarini oqlar emish. Vaholanki, o'z joniga qasd qilish, boshqa odamlarni o'ldirish kabi Islomga butunlay zid narsadir. Alloh taolo suiqasdni ochiq-oydin man' etgan:

«O'z-o'zingizni o'ldirmangiz!» (Niso, 29). Qanday sabab bilan bo'lmasin, kishining o'zini o'zi o'ldirishi Islom tomonidan ta'qiqlangan.

O'z joniga qasd qilish, jumladan suiqasdchi-terrorchilarning minglab begunoh odamlarning hayotiga zomin bo'lishi Islomning axloqiy asoslariga tamoman qarama-qarshidir. Shuning uchun Allohga ishonganini va Qur'on amrlariga bo'ysunganini tasdiqlaydigan har bir kishi ana shunday ishlarni qilmaydi. Bu vahshiylik faqat aql-idrok va vijdonidan mahrum bo'lgan, iymonning haqiqiy mazmunini anglashda qattiq adashayotgan, Qur'onning ilohiy da'vatini bilmaydigan, ongi o'zgalar tomonidan nafrat va alamzadalik orqali boshqariladigan, xudosiz mafkura va keng miqyosdagi tashviqot ta'siriga tushib qolgan kimsalarninggina qo'lidan keladi.

Islom va diniy bag'rikenglik masalalari

Islomning siyosiy doktrinasi (ya'ni Islomning siyosat sohasidagi qonunlari va tamoyillari) favqulodda tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari asosiga qurilgan. Bu haqiqat musulmon bo'lmagan ko'plab tarixchilar va ilohiyotchilar tomonidan ham tan olingan. Dastlab rohib bo'lgan angliyalik tarixchi, Yaqin Sharq tarixi bo'yicha yirik mutaxassis Karen Armstrong ham shulardan biridir. U o'zining «Muqaddas urush» («Holy War») kitobida, dunyodagi uch ilohiy din tarixini tadqiq qilib, quyidagi izohni beradi:

«Arab tilida «islom» so'zi «tinchlik» degan so'zning o'zagidan olingan. Qur'on urushni Xudoning irodasiga zid g'ayritabiiy holat sifatida qoralaydi... Islom muxolif tomonni yo'qotishga qaratilgan bosqinchilik urushlarini ta'qiqalaydi... Islom faqat muqarrar bo'lib qolgan va himoyalani uchun bo'ladigan urushlarnigina tan oladi va ayrim hollarda ularni odamlarga qilinayotgan haqsizlik va azob - uqubatlarni tugatishga qaratilgan ezgu majburiyat sifatida baholaydi. (Ammo) Qur'on ta'lim beradiki, hatto adolatli urush ham qat'iy had - chegaralar hisobga olingan holda, iloji boricha insonparvarlik yo'li bilan olib borilishi kerak. Muhammad (s.a.v.) faqatgina Makka mushriklari bilangina emas, balki bir paytning o'zida mahalliy yahudiy qabilalari, shuningdek yahudiylar bilan til birlashtirib, unga xujum qilishni rejalashtirgan Suriyadagi nasroniy qabilalar bilan ham urushishga majbur bo'lgandi. Ammo bu holat uning qalbida dushmanlariga nisbatan nafrat tug'dirmadi, uni «Ahli Kitoblar»ni (nasroniy va yahudiylarni) la'natlashga olib kelmadi. Uning musulmonlari o'z hayotlarini jismonan himoya qilishga majbur bo'lishdi, lekin ular o'z dushmanlarining diniga qarshi muqaddas urushga kirganlari yo'q. Muhammad musulmon qo'shinlariga boshliq sifatida o'zining ozod qilgan quli Zaydni nasroniylarga qarshi urushga jo'natayotganda unga Alloh yo'lida mardona jang qilishni, ammo insonparvarlikni unutmastikni buyurgan. Ular diniy xizmatchilarni, rohib va rohibalarni bezovta qilishmasdi, urushda qatnashmayotgan, bemajol odamlar, ayollar, yosh bolalar, keksalarni nishonga olmas, ularga zarar yetkazmasdi. Ular tinch fuqarolarni, aholini o'ldirishmagan, bino va uy-joylardan hech birini vayron qilishmagan...»

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin musulmonlarga bosh bo'lib qolgan «xulofai roshidin» (ya'ni, to'g'ri yo'ldagi xalifalar) ham ozod qilingan o'lkalarda mahalliy aholi va yangi ko'chib kelganlar uchun tinch va xavfsiz holda ahil – totuv yashash imkoniyatini yaratib berishgan. Xalifalarning birinchisi Abu Bakr Siddiq (r.a.) Suriyaga harbiy yurishga ketayotib, o'z qo'shinlariga Qur'oni karimning haqiqiy da'vatiga yorqin misol bo'lgan quyidagi buyruqni bergandilar:

«Ey insonlar, men sizlarga chin dildan amal qilishingiz lozim bo'lgan o'n qoidani ma'lum qilaman. Ularni aslo esdan chiqarmang va to'g'ri yo'ldan adashmang. Bolalarni, ayollarni va keksa kishilarni o'ldirmang. Xurmo daraxtlariga o't qo'ymang va daraxtlarni kesmang. Tuyalarni, podalarni va boshqa (hayvonlar) to'dasini o'ldirmang... Siz o'zga ishlar, oxirat dunyosiga xizmat qilish bilan mashg'ul odamlarni uchratasiz. Shunda ularni o'z holiga qo'ying. Sizga turli noz-ne'matlarni tuhfa qilib kelgan odamlarni uchratasiz, ulardan yeng, ammo Alloh nomini esga olishni unutmang».

Xalifalikni Abu Bakrdan (r.a.) qabul qilib olgan xalifa hazrati Umar (r.a.) o'zining o'zga dinlarga xayrixohligi, rahm-shafqatlilik va adolatparvarlilik bilan Islom dunyosidan tashqarida ham ma'lum va mashhur edi. U Arab xalifaligiga qo'shilgan yerlarning xalqlari bilan Islomning chinakam adolatparvarligi va din erkinligiga xayrixohligiga misol bo'la

oladigan qator bitimlarini tuzdi. Masalan, Quddus va Ludda nasroniylari bilan imzolangan xavfsizlik deklaratsiyasiga muvofiq shahardagi cherkovlar buzib tashlanmasligi, musulmonlar nasroniylarning ibodatxonalarini bosib olmasligi va ularda o'zining ibodatlari va sig'inishlarini amalga oshirmasligi kafolatlangandi. Ana shunday sharoitlar Baytlahm (Vifileem) nasroniylariga ham yaratib berilgandi. Ktesifon (al - Madain) shahri xalifalikka qo'shib olingandan so'ng Nestorian patriarxi Ieshuyab IIga (650 - 660) berilgan xavfsizlik Deklaratsiyasi ham cherkovlarning butunligini asrab qolishni va mavjud binolarning birortasini ham masjidga aylantirmaslik majburiyatini ko'zda tutgandi... Xalifa hazrati Umar (r.a.) o'z majburiyatlariga sodiq qoldi. Shahar fath etilgandan so'ng ko'p o'tmay Nestorian patriarxi Ieshuyab II ning o'z do'stiga yozgan maktubi hatto nasroniylarning o'zlari ham musulmon hukmdorlarning ahli kitoblarga adolat va xayrixohlik bilan munosabatda bo'lganlarini tan olishganiga yorqin dalil bo'lib xizmat qiladi:

«Xudo O'zining irodasini ato etgan... bu arablar bizga hech qanday zarar yetkazishmadi. Haqiqatdan ular bizning dinimizga, ruhoniylarimizga, cherkov va monastirlarimizga hurmat bilan qarashdi...»

Musulmonlar tomonidan fath etilgan davlatlarning xalqlari Islomni qabul qilishga zo'rlab majburlangan, degan soxta da'volar va tasavvurlar G'arb tadqiqotchilarining o'zlari tomonidan rad qilindi, musulmonlarning adolatli va diniy xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishini hamma tan oldi. Bu to'g'rida din tarixchisi L. Braun shunday deydi:

«Nasroniylarning musulmonlar o'z davlatlariga qo'shib olgan xalqlarni qilich bilan islomni qabul qilishga majburlagan, degan da'volari g'irt to'qima ekanini isbot talab qilmaydigan dalillar tasdiqlab turibdi... Ularni yangi yerlarni qo'shib olishga ruhlantirgan dinamik omillar ular odamlarni da'vat qilgan musulmon birodarligi va iymoni edi... Bu birodarlikning miqyosi xuddi sel kabi kengayib, Islomni qabul qilgan yangi odamlar bilan to'lib-toshib boradi».

Tarix davomida juda keng hududlarni boshqargan musulmon hukmdorlar boshqa dinlarning vakillariga favqulodda hurmat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lganlar. Islom davlatlarida yahudiy dinidagilar ham, nasroniylar ham hamisha to'la xavfsizlikda, tinch-osoyshtalikda, diniy erkinlikda yashab kelganlar.

Saljuqiylar sultonligi va Usmonlilar imperiyasi davrlarida ham Islomning adolati va diniy bag'rikengligi yaqqol namoyon bo'lgan. Ser Tomas Arnold o'zining «The Preaching of Islam» («Islomning yoyilishi») kitobida nasroniylarning nima uchun Saljuqiylar davlati tarkibiga kirish va ularning qo'l ostida yashashni istaganliklari haqida shunday yozadi: *«Musulmonlar qo'l ostida o'z dinlariga e'tiqod qilishning bexavotirligini anglagan xristianlarning tuyg'ulari Kichik Osiyo (Onado'li) xristianlarining saljuqiy turklarini xaloskorlar kabi kutib olishlariga sabab bo'lgan. Buning ustiga imperator Mixail VIII hukmronligi davrida (1261-1282) Kichik Osiyo mayda manzilgohlarining xristianlari Vizantiya imperiyasining zulmidan xalos bo'lish umidida turklardan o'z davlatlariga qo'shib olishni so'raganlar. Bundan tashqari xristianlarning ko'plari boy bo'ladimi yoki kambag'al, turklarning o'sha paytdagi yerlariga ko'chib o'tganlar».*

Saljuqiylar sultonligi eng gullab-yashnagan davrlarda hukmronlik qilgan Malikshoh fath etilgan yerlarning xalqlariga bag'rikenglik va mehribonlik bilan munosabatda bo'lgan, hattoki musulmon bo'lmaganlar ham uni chinakamiga sevib, hurmat qilganlar. Barcha xolis tarixchilar Malikshohning adolati va bag'rikengligini tan olganlar. Uning axloqi va oliyjanoblighi ahli kitoblar qalbida ham unga muhabbat uyg'otgan. Kichik Osiyodagi

ko'pgina shaharlarning aholisi Malikshoh hukmronligi ostiga ixtiyoriy ravishda o'tishga qaror qilishganki, bu tarixda kam uchraydigan noyob hodisadir.

E'tiqodlari uchun ta'qib, o'lim va vahshiyliklarga duchor qilingan, keyinchalik esa Ispaniya va Portugaliya katolik hukmdorlari tomonidan quvg'in qilingan yahudiylar Usmonli imperiya yerlarida orom-osoyishtalik topganlar. Sulton Boyazid II ning hukmronligi davri diniy bag'rikenglikka yorqin misol bo'la oladi. U 1492 yilda Ispaniyadan quvg'in qilingan yahudiylarni qaramog'idagi Edirne, Livadiya, Tirxala kabi shaharlarda joylashtirgan. Hozirgi kunda Turkiyada yashayotgan 25 mingdan ziyod yahudiylar o'sha davrda musulmonlar yurtidan panohtopgan yahudiylarning avlodlaridir. Sulton Boyazid II tomonidan namoyon etilgan mehribonlik va diniy bag'rikenglik Movarounnahr hukmdorlariga ham xos narsa edi. Amir Temur saltanatiga qarashli barcha shahar va qishloqlarda fuqarolarga erkin yashash, o'z dinlarining qonun va urf-odatlariga rioya qilish huquqi berib qo'yilgan. Jorjtaun universiteti (AQSh)ning din va millatlararo munosabatlar professori Jon L. Espozito musulmon davlatlari boshqaruvi ostiga o'tgan yahudiylar va nasroniylar duch kelgan diniy bag'rikenglik va e'tibor haqida shunday hikoya qiladi:

«Vizantiya va Fors yerlarida yashagan va hamisha kelgindi hukmdorlar qo'l ostida bo'lgan nomusulmon jamoalar uchun Islom hokimiyati atigi ma'muriyat almashinuvi bo'lgan, shu bilan birga bu hukmronlik murosago'yroq va bag'rikengroq edi. Ana shu xalqlarning ko'pchiligi musulmonlar qo'l ostida katta mustaqillikka erishib, soliqlarni ham ancha kam to'laydigan bo'ldilar... Musulmonlarning diniy bag'rikengligiga kelsak, Islomning yahudiylar va mahalliy nasroniylarga avvalgi hukmdorlar davridagiga qaraganda ko'proq diniy erkinlik bergan va qadrlagan din ekanligi ma'lum bo'ladi».

Ovrupolik tadqiqotchilarning sharhu-izohlari guvohlik beradiki, musulmonlar hech qachon dunyoda buzg'unchilik va dushmanlik urug'larini sepishmagan. Ular qaergacha yetib borishgan bo'lsa, o'sha yerlarga va xalqlarga xavfsizlik va barqarorlik olib kelishgan. Alloh taoloning Qur'on orqali nozil qilgan amr-farmonlari va Islom tarixi ochiq-oydin va tushunarli hamda bahslar uchun hech qanday sabab-bahona qoldirmaydi.

“DIN NOMIDAN” HARAKAT QILUVCHI TERRORCHILARNING ASL QIYOFASI

Biz yuqorida ko'rib chiqqan omillar shuni tasdiqlab turibdiki, begunoh odamlarga qarshi qaratilgan har qanday ko'rinishdagi shafqatsizlik Allohning dini axloqiga mutlaqo ziddir. Birorta musulmon hech qachon insonlarga qarshi jinoyatga qo'l urmaydi, aksincha jinoyatning rejasini qilayotgan, yer yuzida buzg'unchilik va yovuzlik tarqatayotganlarning yo'lini to'sish, butun insoniyatning tinchligi va xavfsizligi uchun barcha choralarni ko'rish har bir taqvodor mo'minning burchidir. Buning ustiga Islom terror yo'lidagi to'siq va insoniyat uchun isnod bo'lgan bu holatni yer yuzidan yo'qotishning asosiy yo'lidir.

Salbchilar - o'z dinlarini oyoqosti qilgan vahshiylar

Tarixdan ma'lumki, ilohiy diniy ta'limotning asl ma'nosi uning soxtalashtiruvchilari tomonidan juda ko'p marta buzib, noto'g'ri talqin qilib kelingan. Nasroniylik tarixida insoniyat uchun eng fojiali va ayanchli davr hisoblangan Salb yurishlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

XI asr oxirida Ovrupo nasroniylari Xudoning marhamatiga musharraf bo'lgan Falastinni «saqlab qolish» uchun Salb yurishlari o'tkazishga qaror qilishdi. Nasoro dinini «asrab qolish» uchun butun Ovrupodan to'plangan qo'shinlar qadamlari yetgan joyga dahshat

va shafqatsizlikni olib bordilar. Musulmonlar qo'l ostida bo'lganida tinchlik va musulmonlar, yahudiylar va nasroniylarning ahilligi tayanchi bo'lgan Quddusni qo'shinlar egallab olgach, shahar dahshatli vahshiylik va qonxo'rlik maydoniga aylanadi. Salbchilar shahardagi musulmon va yahudiylarni ayovsiz qilichdan o'tkazishdi. Nasroniy tarixchilaridan birining yozishicha, *«ular shaharda uchratgan barcha arablarni va turklarni... erkak yoki ayolligiga qaramay o'ldirishdi, hech narsani hisobga olmay, yoppasiga qirishdi»*.

Salbchilardan biri – Raymond Agilskiyning yilnomasida mana bunday mazmundagi maqtanchoqlik bilan yozilgan bitiklar bor edi:

«Tasvirlashga loyiq ajoyib voqealar sodir bo'ldi. Ayrim odamlarimiz – ular biznikilarning eng rahmdillari edi – dushmanlarining kallasini sapchadek uzishdi. Odamlarimizning boshqalari esa ularni nayza bilan tinchitishardi. Ayrimlari g'animlarini tiriklay o'tga tashlashar, keyin uzoq qiynab, sekin o'ldirishar edi. Shahar ko'chalari tanadan uzilgan bosh, qo'l-oyoqlar g'aramiga to'lib ketdi. Shunday to'ldiki, ana shu tana a'zolari va kallalarga qoqilmasdan ko'chadan yurish ancha mushkul bo'lib qoldi. Ammo bularning hammasi Sulaymon podsho ibodatxonasi oldida sodir bo'lgan voqealarga solishtirganda hech narsaga arzimay qoladi. U yerda nima bo'lgani qiziqtiriyaptimi? Agar rostini aytadigan bo'lsam, gaplarimga ishonishingiz qiyin. Gapning indallosini aytsam, Sulaymon podsho ibodatxonasi oldida to'kilgan qon daryosi odamlarimizning tizzasidan yuqoriroqqa chiqib ketdi».

Yilnomalardagi ma'lumotlarga qaraganda, salbchilarning qo'shinlari shaharda ikki kun ichida 40 000 ga yaqin musulmon va yahudiyni yovuzlarcha qiymalab o'ldirganlar. Salbchilarning vahshiyliги shu darajaga borib yetdiki, ular IV salb yurishi paytida o'z dindoshlariga qarashli Qustantaniya (Konstantipol) shahrini ham talon-taroj qildilar. Ular shahar cherkovlariga ichki bezak sifatida ishlatilgan oltin ziynatlarni, qimmatbaho toshlarni ko'chirib olib, tashib ketishdan ham hazar qilmadilar.

Salbchilarning vahshiyliги nasroniylikning siyosiy doktrinasiga mutlaqo zid edi. Injil nasroniylikni insoniyatga yuborilgan Ilohiy «muhabbat vahiyisi» deb ta'lim beradi.

Payg'ambar Iso alayhissalom o'z ergashuvchilariga shunday murojaat qilgan:

«Dushmanlaringizni sevinglar... sizga jabr-zulm o'tkazganlarning haqqiga ibodat qilinglar....» (Matto bayon etgan Injil, 5/44). **«Bir chakkangga urganga ikkinchisini ham tut»**. (Luqo bayon etgan Injil, 6/29). Yangi ahdning hech qaysi yerida zulm va zo'ravonlik qilishga ijozat beradigan amr-farmon yo'q, hatto begunoh odamlarni o'ldirishni oqlash fikrining o'zi ham yo'q. *«Begunoh yosh go'dakni o'ldirish»* degan jumla faqat bir marta, yahudiy shohi Irodning payg'ambar Isoni (s.a.v.) go'dakligidayoq o'ldirishga buyurgani asnosida tilga olinadi.

U holda nima sababdan odamlar ustidan har qanday shakldagi zo'ravonlik qilishni taqiqlagan muhabbat diniga e'tiqod qiluvchi nasroniy salbchilar bu qadar dahshatli vahshiylikni sodir etdilar? Buning sababi shundaki, o'z dinlarini go'yo himoya qilmoqchi bo'lgan salbchi jangchilar aslida bu din haqida hech narsa bilmaganlar, Injilni hech qachon o'qimaganlar, nasroniylikning axloqiy tamoyillari bilan tanish bo'lmaganlar, salbchilarning qo'shinlari qattiq adashtirilgan johil va nodon avomdan iborat edi. «Dinni asrab qolish uchun» otilib chiqqan bir guruh munofiqlar Parvardigor nomiga qasam berdilar va «Iso Masih shunga buyurgan» shiori ostida nodon, johil odamlar ommasini vahshiylik girdobiga uloqtirdilar. O'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida, aldov va dinga tuhmat bilan odamlarning g'oyat ko'p qismini din mutlaqo taqiqlagan harakatlarni sodir etishga undadilar.

Shuni ham eslatib o'tish lozimki, ancha yuksak rivojlangan jamoa hisoblangan sharqiy

nasroniylar o'zga dindagilarga tenglab bo'lmaydigan darajada adolat-insof bilan munosabatda bo'lganlar. Salbchilar kelguncha ham va salb yurishlari tugagandan keyin ham, pravoslav nasroniylar musulmonlar bilan tinchlik va totuvlikda yashaganlar. Salb yurishlari tarixiga bag'ishlangan Bi-Bi-Si telekompaniyasi dasturlaridan birida tarixchi Terri Jons shunday xulosaga keladiki, salbchilarning Yaqin Sharqdan chiqib ketishi bilan *«mintaqadagi madaniy hayot qayta tiklandi va uchala dinning barcha vakillari Quddusdagi tinch-osoyishta hayotlariga qaytdilar»*.

Salbchilarning qilmishlari bitta umumiy holatni oydinlashtiradi: agar qandaydir bir g'oyaning izdoshlari ma'rifatdan yiroq bo'lsalar, qalblarida iymon bo'lmasa, Ilohiy din tomonidan buyurilgan axloq masalalarida nodonlik va johillikda yurgan bo'lsalar, g'oyaviy nuqtai nazardan barkamol bo'lmasalar, u holda ularning zo'ravonlikka moyilligi haddan tashqari kuchli bo'ladi. Ana shu qoida dahriylik mafkurasiga ham birday taalluqli. Dunyodagi barcha kommunistik harakatlar zo'ravonlik tarafdori bo'lishgan, lekin ular ichida eng quturgani va insoniyligini yo'qotgani Kambodjadagi Qizil kxmerlar rejimi edi. Chunki kommunistik mafkura tarafdorlarining eng johil, eng nodon, gumroh ommasidan tashkil topgandi. *“Dushmaningni hali sovimagani yuragini sug'urib olib yesanggina uni mag'lub qilasan”*, degan johilona aqidaga amal qilgan qizil kxmerlar o'z xalqlari boshiga vahshiyona kulfatlar olib keldilar.

Qur'onda a'robiy obrazi

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davrlarida Arabistonda ikki asosiy siyosiy tarkibga kiruvchi aholi – shaharliklar va badaviylar (sahroyi a'robiylar) yashardi. Arabiston shaharlari o'sha paytda ancha rivojlangan va madaniy darajasi oshgan holatda edi. Savdo-sotiq aloqalari shaharlarni tashqi dunyo bilan bog'lab turar, bu esa shubhasiz shahar aholisi dunyoqarashi va bilim darajasini kengaytirishga yordam berardi. A'robiylar esa rivojlanish darajasi haddan ziyod past bo'lgan sahrodagi ko'chmanchi qabilalar edilar. Ular har qanday madaniy-ma'naviy qadriyatlardan mahrum bo'lib, san'atni ham, adabiyotni ham bilishmasdi. Sahroning og'ir sharoiti a'robiylarning xulq-atvoriga va hayot tarziga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagandi. Islom Arabiston yarim orolining bosh shahri hisoblanmish Makkada nozil bo'ldi va rivojlandi. Biroq, asta-sekin Arabistonning barcha qabilalari uni qabul qila boshladi. Ana shu qabilalar orasida a'robiylar ham bor edi. Ammo muammo shunda ediki, sahroyi a'robiylarning tafakkur darajasi Islomning chuqur mohiyatini anglash uchun yetarli emasdi. Qur'oni karim oyatlaridan birida badaviylar ahvoli haqida shunday deyiladi:

«A'robiylar kufri nifoqda qattiqroq va Alloh o'z payg'ambariga nozil qilgan narsalarning chegaralarini bilmaslikka loyiqroqdirlar. Alloh bilim va hikmat sohibidir» (Tavba, 97).

A'robiylar, ya'ni «kufri nifoqda qattiqroq va chegaralarni bilmaslikka loyiqroq» ijtimoiy guruhlar payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davrlarida Islom dunyosining bir qismiga aylandilar. A'robiylar ichida «xorijiyalar» (arabchadan tarjima qilganda «buzg'unchilar, isyonchilar» ma'nosida) oqimi shakllandi va keng tarqaldi. Bu oqim Muhammadning (s.a.v.) sunnatlariga ixtilofda bo'lib, uni rad etgani uchun shunday nom oldi. «Xorijiyalar» bid'atchi oqimining tarafdorlari o'zlarining o'ta shafqatsizligi, tajovuzkorligi va mutaassibliyi bilan nom chiqarishgan edi. Islom mohiyati va Qur'on da'vati haqida hech qanday tasavvurga ega emasdilar. Qur'oni karim oyatlaridan bir nechtasini bilib olgan

xorijiyilar ularning ma'nosini to'laligicha buzib, o'z mafkuralariga qo'shilmagan barcha musulmonlarga qarshi urush ochdilar. Ularning musulmonlar bilan urush usuli ochiq terror va musulmonlarni qo'rqitishdan iborat edi. Hazrati Ali ibn Abu Tolib (karramallohu vajah) Payg'ambar alayhissalomning eng yaqin safdoshlari va kuyovlari bo'lganlar, musulmonlar bu kishini chuqur bilimlari va taqvolari uchun «ilm shahrining darvozasi» deb atashgan. Ana shu ulug' zot xorijiyilarning oldindan rejalashtirgan hujumi natijasida shahid bo'lganlar.

Keyinchalik Islom olamida «xoshxoshitlar» nomi bilan tanilgan yangi oqim paydo bo'ldi. Bu o'z boshliqlari tomonidan jo'n shiorlar va ko'plab va'dalar evaziga jalb qilingan, aslida Islom mohiyati, uning aqidasi haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan mutaassib va johil ko'chmanchilardan tashkil topgan jangarilarning ochiq «terrorchi» guruhlaridan iborat edi.

Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy iymon egalari safida hamisha adashganlar, munofiqlar va xudosizlar ham bo'lgan. Ular diniy ta'limotning mohiyatini soxtalashtirishga, undan zo'ravonlik, zulm va shafqatsizlik quroli sifatida foydalanishga urinishgan. Nasroniylikdagi salbchilar kabi, Islomdagi ayrim adashgan oqimlar ham ilohiy din haqida juda noto'g'ri tasavvurga ega bo'lganlar. Qur'on ta'rifi bilan aytiladigan bo'lsa, ularni bitta nara – «a'robiiy» fe'l-atvori, ya'ni g'irt johillik, odamovilik, vahshiylik, madaniyatsizlik hamda axloqsizlik birlashtirib turadi. Ular sodir etadigan jinoyatlar va zo'ravonliklar aslo ular e'tiqod qo'ydik, deb da'vosini qilayotgan din tufayli emas, balki ana shu ijtimoiy illatlarning mevasidir.

Terrorchining maqsadi – qotillik

Rus anarxizmi asoschisi Mixail Bakunin va uning g'oyaviy shogirdi Sergey Nechaev «risoladagi» terrorchi obrazini shunday ta'riflaganlar: «Idealdagi terrorchi – mavjud qonuniy tartib va barcha madaniyatli dunyo bilan, uning qonunchiligi, axloqi va boshqa institutlari bilan hamma aloqalarini uzgan kishidir... Uning uchun faqat bitta fan – yo'q qilish, qirib tashlash fani mavjud».

Bakunin va Nechaevlarning so'zidan ko'rinib turibdiki, terrorchilar – jamiyatning barcha tuzilmalari bilan aloqasini uzgan, axloqiy va boshqa qadriyatlarni inkor etadigan va ana shu jamiyat tuzilmalarini o'zining qandaydir dushmani yoki yo'lidagi to'siq deb hisoblaydigan odamlar ekan. Bakunin yana shunday deb ham yozgan edi: «Terrorchida bitta maqsad – ayovsiz qirish maqsadi bo'lishi kerak!... Ana shu niyat yo'lida to'xtamay va sovuqqonlik bilan harakat qilib, o'limga hamisha shay turishi, unga halaqit berishga uringanlarni o'z qo'li bilan o'ldirishi kerak». Terrorchilikning qo'llanmalaridan biri sifatida tan olingan «Inqilobchiga eslatma» kitobida Bakunin shunday tushuntirish beradi: «O'ziga nisbatan qattiqqo'l bo'lgan inqilobchi boshqalarga ham shunday munosabatda bo'lishi, oqibat, do'stlik, minnatdorchilik, hatto or-nomus kabi hissiyotlarga umuman berilmasligi kerak. U faqat inqilobiy ishga nisbatan metin ishtiyoqqa ega bo'lishi lozim. Chunki ana shu narsagina unga quvonch, qoniqish va mukofot olib keladi».

Bu so'zlar terrorning mudhish qiyofasini to'la-to'kis ochib berishi bilan birga, uning insonlarga muhabbat, tinchlik-osoyishtalik, diniy bag'rikenglik olib keluvchi Islom aqidasi mutlaqo zid ekaniga guvohlik beradi.

Terrorchilikda olomon psixologiyasi

Terrorchilardagi yana bir muhim xususiyat olomon psixologiyasi va kayfiyatidir. Olomon yoki to'da uni tashkil etuvchi kishilarning barcha shaxsiy sifatlarini, fikr va maqsadlarini

yutib, yo'q qilib yuboradi. To'dada bitta umumiy maqsad bo'ladi. Olomon psixologiyasi ta'siri ostida harakat qiluvchi odamlar o'z irodasidan, aql-idrokidan mosuvo bo'ladilar, yolg'iz holatda qilolmaydigan ishlargagina qodir bo'lib qoladilar. Jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi terrorchi guruhlar johil, nodon va irodasiz, hatto u yoki bu jinoyatni nima maqsadda qilayotganini ham anglamaydigan odamlardan tuziladi. Hissiy jazavaga qul bo'lgan, olomon va jo'n shiorlar ta'siriga tushib qolgan bu kimsalar ommaviy yovuzlik komiga tortilib, o'z xatti-harakatlarini idora qila olmay qoladilar. Vaholangki, ularda iroda bo'lganida yovuzlikka qo'l urmagan bo'lardilar. Bir qaraganda tuppa-tuzik ko'rinadigan ushbu kimsalar bir zumda qonxo'r qotillarga, tajovuzkor namoyishchilarga va nihoyat har qanday vahshiyona ishlarga qodir bo'lgan terrorchilarga aylanishlari mumkin. Bunday inson kundalik hayotda, yolg'iz o'zi bo'lganida, mutlaqo yuvvosh va beozor tuyuladi, ammo terrorchi guruh tarkibida u boshqalarga qo'shib uylarga o't qo'yishi, hech bir sababsiz o'zgalarga hujum qilishi, talonchilik yoki tinch odamlarni ommaviy o'ldirishda qatnashishi mumkin. U o'ylab ham o'tirmay o'z joniga qasd qilishi ham mumkin. Terrorchi to'da ichiga tushib qolgan kimsa olomon ruhiyati tushgach, hech bir mushohadasiz, berilgan buyruqni beixtiyor bajaraveradi.

Terrorchilik faoliyatida qatnashayotganlarning aksariyati - o'z irodasi va vijdonidan mahrum bo'lgan odamlardir. Ular olomon psixologiyasiga singib ketishgan va o'ziga xos «poda»ga aylanishgan. Aql-idrok va tafakkur qobiliyati o'z o'rnini zo'ravonlik hamda tajovuzga moyillikka, favqulodda qiziqqonlik va o'jarlikka bo'shatib bergan. Bunday kimsalar fitnalarga osongina beriladilar, bag'rikenglikdan yiroq bo'lib, hech qanday qonunlarni tan olmaydilar.

Qur'oni karim kishilarni ogohlantiradiki, ommaning psixologiyasiga ko'r-ko'rona bo'ysunish katta gunoh va xato ishdir. Parvardigor insonga aql-idrok va ongni ulardan iloji boricha to'la foydalansin va haqni yolg'ondan ajrata olsin deb ato etgan:

«(Ey inson), o'zing aniq bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, dil – bularning barchasi to'g'risida (har bir inson Qiyomat kunida) mas'ul bo'lur»
(Al-Isro, 36).

Mutaassiblik – terrorchilikga olib boruvchi yo'l

Yuqorida qayd etib o'tilgan tarixiy misollar ommaviy axborot vositalari tomonidan tez-tez tilga olinib turiladigan «Islom terrorchiligi» degan tushunchaning to'la bema'niligini va asossizligini anglashda juda muhimdir. Bugun Islom dini nomidan o'zining vahshiyona ishlarini qilayotganlar ham, ularni qo'llab-quvvatlayotganlar ham musulmon hisoblanmaydi. Ular Allohning Kalomi - Qur'oni karimda eslatib o'tilgan johil va shafqatsiz sahroiylar kabi Islom dini mohiyatini tushunmaydilar, tinchlik, rahm-shafqat va adolat dinini o'zlarining johilliklari tufayli yuzaga kelgan yovuzlik quroliga aylantirishga urinmoqdalar. Ayrim mutaxassislar ushbu qahhorona va qotiloni kayfiyatni o'z vaqtida Ovrupo mamlakatlari tomonidan olib borilgan mustamlaka siyosatining natijalardan biri deb baholamoqdalar.

Musulmon mamlakatlarining rivojlangan Ovrupo tomonidan mustamlakaga aylantirilgan "uchinchi dunyo" olami a'zolari bilan bir qatorda uzoq yillar zulm va haqsizlikka duchor bo'lganliklari haqiqat ekanligini ko'pchilik e'tirof etadi. Buning ustiga "qora oltin" va gaz konlari uchun, geostiqbol va geosiyosat maqsadlarida olib borilayotgan olamshumul kurashlar, jumladan Falastin-Isroil muammolari millionlab musulmon va musulmon bo'lmagan kimsalarni o'z domiga hamon tortib turganligi hech kimga sir emas. Biroq bu hayotiy sinovlar musulmonlar tomonidan Qur'oni karim amr-farmonlariga binoan qabul

etilishi va baho berilishi zarur. Alloh taolo Qur'oni karimda «zulmga zulm bilan» javob berishga yo'l qo'ymagan va musulmonlarni bu haqda ogohlantirgan:

«(Sizlarni Ka'badan to'sganlari sababli) biron qavmni yomon ko'rishingiz haddingizdan oshishingizga tortmasin! Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qilingiz, gunoh va haddan oshish yo'lida hamkorlik qilmangiz! Allohdan qo'rqingiz!» (Moida, 2).

Demak, «dunyo mazlum xalqlari uchun qasos» kabi shiorlar ostida boshqa millatdagi begunoh, tinch odamlarga qarshi terrorchilik harakati sodir etadigan kimsalarning Islomga ham, Qur'onga ham hech qanday aloqasi yo'q. Bu o'rinda yana bir holatni ta'kidlab o'tish lozim: G'arb mamlakatlari tomonidan mustamlaka qilingan o'lkalarda, jumladan musulmonlarga qarshi qo'llanilgan jabr-zulm va zo'ravonliklarda hozirgi G'arbning umuman aybi yo'q. Bu siyosat XIX-XX asrlarda G'arb mamlakatlarini qamrab olgan moddiyunchilik, dahriylik mafkurasi va uning oqimlari ta'sirida olib borilgan. Ovrupo mustamlakachiligi nasroniylik axloqidan paydo bo'lishi mumkin emasdi. Yo'q, u nasroniylik qadriyatlariga qarshi otilib chiqqan xudosizlik oqibati edi va o'zining XIX-XX asrdagi musulmonlarga qarshi vahshiyliklarini sotsial-darvinchilik mafkurasi yordamida amalga oshirdi. G'arb olamida hamon yashab kelayotgan shafqatsiz, buzg'unchi va ig'vogarona kuchlar bilan bir qatorda tinchlikparvar, beg'araz, xolis niyatli, adolat uchun kurashadigan va eng avvalo nasroniylik etikasiga amal qiladigan kuchlar ham mavjud. Aslida, hozirgi dunyoda kuzatilayotgan qarashlardagi asosiy g'oyaviy ixtilof G'arb va Islom dunyosi o'rtasida emas, balki xudosizlar (moddiyunchilar, ateistlar, darvinchilar va boshqalar) bilan ham G'arbdagi, ham Islom dunyosidagi haqiqiy iymon egalari o'rtasidadir.

Bu yerda yana shuni eslatish lozimki, Islom faqat u yoki bu alohida millat yoki jo'g'rofiy hududga xos bo'lgan ta'limot emas. Islom – butun insoniyat uchun hidoyat yo'li sifatida Buyuk Xoliqimiz tomonidan nozil qilingan oxirgi ilohiy dindir. Islom zaminimizdagi barcha insonlarga murojaat qiladi. Musulmonlar haq dinni va o'zlari e'tiqod qo'ygan diniy ta'limotni barcha millat va madaniyatdagi odamlarga yetkazish va shu orqali ularning qalblarida samimiylik va Islomning asl qadriyatlarini anglashga intilish hissini uyg'otishga Parvardigorlari oldida mas'uldirlar.

Demak, «din nomi bilan» terrorchilik aktlariga qo'l urayotgan, mustabid tuzumlarni o'rnatayotgan va bu dunyoda jabr-kulfat tarqatayotgan odamlar va guruhlarga qarshi turishning faqatgina birgina usuli bor ekan: u ham bo'lsa hayotda haqiqiy Islomga e'tiqod qilish, u haqda gapirish, unga da'vat qilishdir. Toki, odamlar o'z ixtiyorlari ila uni anglab yetib, hayotlarida dasturulamal qilib tanlab olsinlar.

Terrorchilarning psixologik usullaridan biri - tasodifiy nishonlarni tanlashdir. Nishonni hech qanday tahlilsiz, o'ylab-netmay tanlash butun jamiyatda vahima va qo'rquv, parokandalik paydo qiladi. Chunki birorta odam o'zini bexatar, bexavotir his qilolmaydi. Hech kim o'z himoyasi uchun hech narsa qila olmaydi. Chunki terrorchining o'z qoidalari bor: u qurbonini hech bir mulohazasiz, xohlagan vaqtda va istagan joyida tanlaydi, bu esa siyosiy terrorchilik aktlarining oldindan aytib bo'lmasligiga va mantiqsizligiga olib keladi.

Qiziqqonlarning adashishi

Terrorchilik muammosi bilan bir qatorda ko'rib chiqishni taqozo etadigan masalalardan biri – radikalizm, ya'ni qiziqqonlik qilish, keskin choralar ko'rish holatidir.

Radikalizm qaysidir sohada qat'iy, tub, tuyqus o'zgarishlarni himoya qilish, ana shunga erishish maqsadida qiziqqonlik bilan, keskin va murosasiz siyosat olib borish deganidir. Radikal kuchlar u yoki bu sohada tub islohotlarga keskin, tajovuzkorona, ko'p hollarda kuch ishlatish yo'li bilan erishishga intiladi.

Hayotdagi har qanday holatlarga bo'lgani kabi, Islomning ushbu muammoga munosabatining mezonini ham Qur'oni karim ko'rsatmalari hisoblanadi. Qiziqqonlik har qanday ko'rinishda Alloh taolo musulmonlarga Qur'oni karim orqali amr etgan tafakkur tarzi va hayotning axloqiy qonunlariga muvofiq kelmaydi. Alloh mo'minlar egallashi lozim bo'lgan ruhiy sifatlarni ko'rsatar ekan, kishilarni yumshoq qalbli, ezgulikka, har qanday mojaro va ixtilofli vaziyatlardan xoli, hatto o'ziga dushmanchilik kayfiyatida turganlarga ham yaxshi munosabatda bo'lishga buyuradi.

Payg'ambarlar Musoga (a.s.) va Horunga (a.s.) Alloh taoloning amri ana shunday vaziyatlarda chin musulmonlarga o'zini qanday tutishda to'g'ri yo'lni ko'rsatganiga misol bo'ladi:

«Sizlar Fir'avning oldiga boringlar, chunki (u «Men xudoman», deb) haddidan oshdi. Bas, unga yumshoq so'zlanglar! Shoyad pand-nasihat olsa yoki (Mening qahrimdan) qo'rqsa» (Toha, 43-44).

Fir'avn buyuk Parvardigorning irodasini inkor etib, o'zini xudoning yerdagi timsoli deb e'lon qilgan eng beshafqat hukmdorlardan biri edi. Fir'avning mustabid hukmronligi dindorlarni (Bani Isroilni) shafqatsiz jabr-sitam va zulmga giriftor qildi. Biroq Alloh ana shunday dushmanlik vaziyatida ham Fir'avnga pand-nasihat qilish uchun yuborilgan payg'ambarlariga «unga yumshoq so'zlanglar», deb buyuradi. Ulug' Parvardigor tinch munosabatlar o'rnatish, chiroyli pand-nasihatlar olib borishni, ixtilof, keskin fikr aytish va g'azabnok shiorlar, norozilikning tajovuzkor ko'rinishlaridan tiyilishni amr etadi. Qur'oni karim musulmonlarga xulq-atvorning hamda, agar odamlarning qalblari xusumat va nafrat bilan to'lib-toshgan bo'lsa hamki, ular bilan muomala qilishning Xudoga xush keladigan tomonlarini ko'rsatuvchi ko'plab misollar keltiradi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) xulqlarini ta'riflovchi oyati karimalardan birida shunday deb marhamat etiladi:

«(Ey Muhammad) Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalaringizga) yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiq dil bo'lganingizda edi, albatta, ular atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar» (Oli Imron, 159).

Murosasiz, keskin yo'l tutish, qiziqqonlik qilish radikalizmning alohida xususiyatlaridandir. Xulq-atvorning bu ko'rinishini barcha radikal kuchlarning nutqlarida, matnlarida va namoyishlarida kuzatish mumkin. Ayni paytda g'azab va shafqatsizlik Parvardigor ta'qiqlagan xulq qirralaridir. Musulmonlarning ruhiy sifatlarini bayon etarkan, Alloh taolo marhamat etadi:

«(U taqvodor zotlar) yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) afv etadigan kishilardir. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi» (Oli Imron, 134).

Aslini olganda, musulmon kishi har qanday hayotiy sinov va voqea bo'lmasin, g'azabini yoki badxohligini namoyish qila olmaydi. Zero, haqiqiy musulmonning yagona maqsadi

o'zining chiroyli ibrati bilan boshqa odamlarni iymonga va ilohiy amr-farmonlarga bo'ysunishga chorlashdir. Biroq odamlarni iymonli qilishga, Parvardigor ularni hidoyatga yo'llab qo'ygandagina, imkon bo'ladi. Biz nimalar qilmaylik, odamlarga qandoq haqiqatlarni tushuntirmaylik, ularning qalblari faqat Alloh taoloning izmidadir. Buyuk Xoliqimiz bu muhim haqiqatni musulmonlarga tushuntirib, marhamat qiladi:

«Agar Parvardigoringiz xohlasa edi, butun yer yuzidagi barcha kishilar iymon keltirgan bo'lur edilar. Axir siz odamlarni mo'min bo'lishga majbur qilurmisiz?» (Yunus, 99).

Shuning uchun musulmonning Parvardigor oldidagi yagona majburiyati odamlarga iymon haqidagi haqiqiy bilimlarni yetkazish va ularni Haqqa tinch yo'l bilan da'vat qilishdir. Ulug' Parvardigorning amr-farmonlariga bo'ysunarkan, har bir kishi odamlarni dinga ham, musulmonlarning Parvardigorlari huzuridagi majburiyatlarini bajarishga ham majburlash yo'qligini va bunday qilish mumkin emasligini chuqur anglab yetishi kerak. Faqatgina chiroyli pand-nasihatlar va maslahatlarga ijozat etiladi. Alloh taolo Payg'ambari Muhammadga (s.a.v.) amr qilib aytadi:

«Biz ular aytayotgan so'zlarni juda yaxshi bilurmiz. (Ey Muhammad), siz ularning ustida (dinu iymonga) zo'rlaguvchi emassiz. Bas, ushbu Qur'on bilan Mening va'damdan qo'rqadigan kishilarga pand-nasihat qiling!» (Qof, 45).

Musulmonlar Islomning asl qoidalarini bosim yoki zo'rlik qilmasdan tushuntirishlari lozim. Ular Alloh taolo oldida shunga mas'uldirlar. Musulmonlar, hatto eng beshafqat xudosizlarga nisbatan ham, chiroyli pand-nasihatlar va yaxshi muomala qilishlari kerak. Shunday ekan, har qanday radikalizm, ya'ni keskin choralar ko'rish to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Radikalizm musulmonlarga yuklatilgan vazifalarga butunlay zid keladigan usullarni ko'zda tutadi va ularni o'z harakatlarida qo'llaydi. Aslida radikalizm Islomning tashqarisida paydo bo'lgan va unga ancha keyin kirib kelgan mafkuraviy oqim va siyosiy strategiyadir. Radikalizmning ijtimoiy muammolarini o'rganish chog'ida shu narsa aniq ko'rinadiki, bu hodisa o'tmishda kommunistlar va xudosizlar foydalangan hamda Qur'oni karim:

«O'shanda kofir bo'lgan kimsalar dillariga qiziqqonlikni-dinsizlik qiziqqonligini solganlarida...» (Fath, 26) deya ta'riflangan usul va shiorlarning o'ziga xos «yig'indisi» bo'lib, uning Islom axloqiga hech qanday aloqasi yo'q.

Barcha musulmonlar Qur'oni karimning ruhiyati va mohiyatiga zid keladigan har qanday ko'rinishdagi shafqatsizlik, g'azab tuyg'ulari va ixtilofli munosabatlardan mutlaqo qochishlari, har qanday vaziyatda ham Alloh taolo belgilab qo'ygan ezgulik, sulhparvarlik va mulohazakorlik yo'lidan borishlari uchun Parvardigorlari huzurida mas'uldirlar.

Musulmonlarning ma'naviy yetukligi, diniy bag'rikengligi, tinchliksevarligi va kamtarligi butun insoniyatga namuna bo'lishi va Islomning axloqiy ko'rsatmalari odamlar qalbida hayratlanish tuyg'ulari uyg'otishi darkor. Musulmonlar faqatgina axloqiy yo'nalish bo'yicha ibrat bo'lib qolmasdan, hayotning barcha jabhalarida, fan va madaniyatda, san'at va nafosatda, ijtimoiy qurilishda ham ulug' Parvardigor tomonidan nozil qilingan diniy ta'limotning munosib vakillari sifatida namuna ko'rsatishlari kerak.

Kishilarni iymonga, dinga da'vat qilish, Islomga yot bo'lgan xudosizlik mafkuralariga qarshi kurash Parvardigor yo'l qo'ygan usullarga qat'iy rioya etgan holdagina olib

borilishi lozim. Alloh taolo musulmonlarning boshqa kishilar bilan munosabati qanday bo'lishi kerakligi haqida mo'minlarga ochiq xabar berib qo'ygan:

«(Ey Muhammad), Parvardigoringizning yo'li – diniga donolik-hikmat va chiroyli pand-nasihati bilan da'vat qiling! Ular (siz bilan talashib-tortishadigan kimsalar) bilan eng go'zal yo'lda mujodala-munozara qiling! Albatta, Parvardigoringizning O'zi Uning yo'lidan ozgan kimsalarni juda yaxshi bilur va U zot hidoyat topguvchi kishilarni ham juda yaxshi bilur» (Nahl, 125).

Terror psixologiyasi va usullari

«Terror» tushunchasi juda ko'p ma'nolarni o'zida qamrab olgan. Bugun bu so'z faqat odatda radikal mafkurali guruhlar olib borayotgan qurolli kurashga nisbatan ishlatilyapti. Biroq «terror»ning to'la ma'nosi odamlar hayotiga xavf tug'diruvchi miqyosda qo'rqitish, vahimaga solish, kishilar hayotini batamom qamrab oluvchi qo'rquv va zo'ravonlik muhitini yaratishni anglatadi. Terror deganda terrorchilar xohlagan fikrlar va hayot tarzi, o'zlari nazarda tutgan xulqni jamiyatga majburan singdirish maqsadida kishilarni ommaviy tarzda va muntazam dahshatga solish, odamlarda qo'rquv tug'diradigan har qanday zulm va zo'ravonlikni amalga oshirish nazarda tutiladi. Biroq, har qanday holatda ham hech bir gunohi yo'q, tinch odamlar bevosita yoki bilvosita terrorchilik aktlarining nishoniga aylanadi. Terrorchilik tashkilotlari xalq ommasini o'z safiga tortish uchun qo'rqitish vositasidan foydalanadilar. Ular qo'rquv muhiti yordamida o'zlarining jamiyatga ta'sir kuchini ko'paytirishni va shu yo'l bilan xalqning yoki ko'pchilikning qo'llab-quvvatlashiga erishishni ko'zlaydilar. Terrorning bu turi «so'l» terror sifatida nom chiqargan.

Lekin yakkahokim rejimlar olib borayotgan uchinchi dunyo mamlakatlarining terrori ham mavjud. Aslida yakkahokimlik (diktatorlik) «so'l» terror mantiqining keng miqyosda qo'llanilishidan boshqa narsa emas. Hukmron rejim yoki diktator boshqaruvning repressiv usullari bilan farqlanadi va hokimiyatdan faqat o'z foydasi yo'lida foydalanadi. Shu sababga ko'ra rejim jamiyatdagi turli muxolif tuzilmalar bilan doimiy ixtilofda bo'ladi. Ana shunday sharoitda diktatorlik rejimi o'zining muxolifatdan ustunligini isbotlash uchun o'sha shaklning o'ziga muvofiq harakat qiladi, ya'ni fuqarolarini qo'rquvga solish va shu orqali ularga ta'sirini o'tkazish maqsadida terrordan foydalanadi. Mafkuralarini himoya qilish uchun terrorchi tashkilotlar o'zlaricha adolatsiz va shafqatsiz deb hisoblagan rejim va hukmdorlarni yo'qotish, xalqqa baxtliroq va adolatlirorq hayotni hadya etishni maqsad qilib olishgan. Vaholanki, bunday yo'l tutish g'irt bema'nilikdir. Alloh taolo bunday qilayotganlar qattiq adashuvda ekanlari haqida ogohlantirib qo'ygan:

«Ularga: «Yer yuzida buzg'unchilik qilmanglar», deyilsa, «Biz isloh qiluvchilarmiz», deydilar. Ogoh bo'lingizkim, ular albatta buzg'unchilardir, lekin o'zlari buni sezmaydilar» (Baqara, 11-12).

Mutlaqo turlicha maqsadlarni ko'zlagan terrorchilar gohi-gohida har ikki tomonning manfaatlarini ta'minlashga yordam beradigan qandaydir ittifoqlarga birlashib ham turishadi. Terror mantiqiga suyanganlar odamlarni o'ldirishdan ma'lum «foydani» ko'zlab qo'lga qurol olishadi, chunki bu kimsalar uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q. Odam o'ldirish terrorchilar uchun «hayot tarzi»ga aylanib qoladi. Ular tariqcha rahm-shafqat qilmay va vijdoni azoblanmay tinch aholini o'qqa tutishi, bolalar o'yinchog'iga bomba joylab qo'yishi mumkin. Ular insonlik qiyofasini yo'qotib, vahshiy va qonxo'r

maxluqlarga aylanib qolishadi. Agar tuyqusdan terrorchilar safida qurbonlardan birontasiga jinday rahmi kelgan odam paydo bo'lib qolsa, ular o'sha odamni shu zahoti yo'q qiladilar yoki qo'rqoq va sotqin sifatida saflaridan siqib chiqaradilar. Terrorchi guruhlar ko'pincha bir-birlariga ham hujum qilib qoladi. Ular o'z saflaridagi guruhlarga qarshi «qonli tozalov» jarayonlarini ham amalga oshirib turishadi.

Terrorchilik qon to'kishning shaytoniy usulidan o'zga narsa emas. Terrorni qo'llab-quvvatlaydiganlar yoki terrorchilarning vahshiyliги va yovuzligiga xayrixohlikka da'vat etadiganlar ana shu iblis malaylariga xizmat qilgan bo'ladilar. Terrorchilarning diniy tushunchalar va diniy ta'limotdan foydalanishlari hech kimni chalg'itmasligi kerak. «Din xizmatchilari» rutbasidagi terrorchilar esa gunohi kabirani qilgan bo'ladilar, ular Alloh taolo yo'l qo'ygan had-chegaralarni buzgan hisoblanadilar, Parvardigor nomini niqob qilib, zulm va qon to'kilishiga sabab bo'ladilar.

Terror va din bir-biriga tubdan zid tushunchalardir. Terrorchilik zulm, qotillik, urushlar, odamlarning jabr-sitam ko'rishi va xo'rlanishini o'ziga maqsad qilib olgan. Bularning hammasi Qur'onda ulkan buzg'unchilik hisoblanadi. Alloh taolo mo'minlarga tinchlik va adolat o'rnatishni, yaxshilik qilishni va odamlar orasini isloh etishni buyuradi. Alloh taolo zulm-zo'ravonlikni va yer yuzida buzg'unchilik qilishni ta'qiqlagan. Parvardigor o'zining amr farmonlaridan bo'yin tovlagan kimsalarni la'natlaydi:

«Allohga bergan ahd-paymonlarini mustahkam bo'lganidan keyin buzadigan, Alloh bog'lanishiga buyurgan narsalarni uzadigan va yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan kimsalar ham borki, ular uchun (Allohning) la'nati bo'lur va ular uchun eng yomon diyoyor - jahannam bordir» (Ra'd, 25).

Terrorga suyanib, yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan kimsalar Alloh huzuridagi muhabbat tuyg'usi va titroq-qo'rquvni bilmaydilar, ularning qalblari o'lik, ruhlari bemor. Qur'oni karim ularni shunday ta'riflaydi:

«(Ey Muhammad), yana siz har bir tuban qasamxo'r, g'iybatchiyu gap tashuvchi, yaxshilikni man' qiluvchi – baxil, tajovuzkor, gunohga botgan, qo'pol va bulardan tashqari benasab - haromi kimsaga itoat etmang» (Qalam, 10-13).

Zo'ravonlik – terrorchilarning tashviqot usullaridan biri

Terrorchilar kuch ishlatish, zo'ravonlik harakatlarini tashkilotlarining tashviqot usullaridan deb hisoblashadi. Terrorchilarning fikricha, begunoh kishilarni o'ldirish, banklarni talash, odam o'g'irlash, portlashlar uyushtirish tashviqot va kurashning o'ziga xos vositalari emish. Bu mantiqqa terrorchilarning quyidagi shiori yordamida aniqlik kiritish mumkin: **«Bitta harakat bilan hatto millionlab varaqa tarqatish yordamida ham erishib bo'lmaydigan «mashhurlikni» ta'minlash».**

Bu mantiq terrorchilarning tajovuzkorona fikrlash tarzini ko'rsatib turibdi. Ularning tafakkuri insoniy tuyg'ulardan, rahm-shafqatdan, mehribonlikdan, murosadan, diniy bag'rikenglikdan yiroq. Ularni xudosizlik va ateizm ta'siriga qattiq berilgan, iymondan va Qur'on o'gitlaridan juda uzoq kishilargina qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Xuddi shu sabablarga ko'ra, odamlarga Qur'oni karimning tom ma'nodagi ilohiy o'git, pand-nasihatlarini yetkazish va hayotda ularga amal qilish johilona, g'ayriinsoniy fikrlash tarzini tag-tomiri bilan yo'q qilishning yagona maqbul yo'lidir.

ISLOM VA AHLI KITOBLAR

Bugungi kunda insoniyat boshdan kechirayotgan terrorchilik muammolari asosida butun dunyoning kun tartibida paydo bo'lgan yana bir muhim masala – G'arb bilan Islom dunyosining o'zaro munosabatlaridir. XX asrning 90-yillari boshidayoq ayrim siyosatchi va tahlilchilar dunyoning falokat yoqasida va G'arb bilan Islom o'rtasidagi ulkan ziddiyat arafasida turgani haqida gapira boshladilar. Bu masala hatto Semyuel Xanatington tayyorlagan mashhur «Hazoralar (tsivilizatsiyalar) to'qnashuvi» tezislarining asosiy mavzusiga aylandi. Biroq bu tezislarda har ikki hazoraning ichida mavjud bo'lgan qator radikal kuchlar ta'siri hamda ahamiyatini bo'rttirish orqali tug'ilgan soxta, to'qima xulosaga asoslangan edi. Aslida esa Islom olami va G'arb o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki G'arb madaniyati nasroniylik va yahudiylik ko'rsatmalariga asoslangan bo'lib, o'z navbatida ular Islom bilan to'la kelishuvda va muloqotdadir, ayrim doiralar ta'kidlayotgandek hech qanaqa ixtilofga ularning borishi mumkin emas.

Qur'on nasroniylar va yahudiylarni «Ahli kitoblar» deb ataydi. Qur'on musulmonlarga har ikki dinga e'tiqod qiluvchilar ulug' parvardigor Alloh taolo tomonidan nozil qilingan ilohiy vahiyga amal qilishlari xabarini beradi. Islomning ahli kitoblarga munosabati oliy darajadagi izzat-ehtiromlilik va do'stonadir.

Musulmonlar va ahli kitoblar o'rtasidagi izzat, hurmat va yaxshi munosabatlar Islom nozil bo'lgandan keyingi ilk yillardayoq paydo bo'lgan. Ma'lumki, Islom Makkada nozil bo'lgan, dastlabki yillarda uning tarafdorlari ozchilikni tashkil qilgan. Ular butparastlarning og'ir ta'qiblari va tahdidlari sharoitida ham o'z dinlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Mushriklarning adovati musulmonlar jamoasi hayotiga xavf tug'dira boshlagach, ular Makkani tark etish va adolatparvar hukmdorlar boshchilik qilgan mamlakatlardan boshpana topishga qaror qilganlar. Payg'ambarimiz (s.a.v.) musulmonlarga Habashistonning nasroniy podshosi Najoshiydan boshpana so'rashni maslahat berdilar. Mazkur maslahatga binoan Habashistonga kelgan musulmonlar iliq va ehtiromlilik bilan kutib olindi, ularga bu yerda adolat bilan munosabatda bo'ldilar, nasroniylar va musulmonlar ilk daf'a o'zaro til topishdilar. Podshoh Najoshiy Makka mushriklarining musulmonlarni iziga qaytarish va ulardan o'ch olish haqidagi barcha talab va po'pisalarini rad etdi hamda musulmonlar o'zining qo'l ostidagi yerlarda tinchlik va osoyishtalikda yashashlari mumkin, deb ta'kidladi.

Qur'oni karim oyatlarida nasroniylarning ilk musulmonlarga mehribonligi, adolati va ehtiromlilik alohida ta'kidlanadi. Alloh taolo oyatlardan birida bizga shunday marhamat qiladi:

«Iymon keltirgan zotlarga eng yaqin do'st bo'lguvchilar esa: «Biz nasroniylarmiz», degan kishilar ekanini ko'rasiz. Bunga sabab ularning orasida olimlar va rohiblar bor ekanligi va ularning kibr-havo qilmasliklaridir» (Moida, 82).

Musulmonlar va ahli kitoblarning mushtarak axloqiy qadriyatlarini

Musulmonlar, nasroniylar va yahudiylarning diniy ta'limoti juda ko'p umumiy nizomlarga ega. Alloh taolo Qur'oni karimda musulmonlar va ahli kitoblar Buyuk Yaratuvchiga bir din vositasida bog'langanlar, deb xabar beradi:

«...Bizlar o'zimizga nozil qilingan (Qur'on)ga ham, sizlarga nozil qilingan (Tavrot va Injil)ga ham iymon keltirganmiz. Bizlarning ilohimiz ham, sizlarning

ilohingiz ham Bir (Iloh)dir va bizlar Ungagina bo'yinsunguvchimiz» (Ankabut, 46).

Uchala dinga e'tiqod qiluvchilar:

- koinot va yerdagi barcha mavjudotlarning Xoliqiga, O'zi yaratgan hamma narsa ustidan cheklanmagan hukmi o'tadigan Yagona Ilohga sig'inadilar;
- Ulug' Parvardigor o'z mo'jizasi bilan yer yuzidagi barcha jonzotlarni va insonlarni yaratganiga, inson Parvardigori ato etgan ruh sohibi ekaniga iymon keltiradilar;
- o'lgandan keyin oxirat dunyosida qayta tirilish borligiga ishonadilar. Do'zax va jannatga, farishtalarga, taqdiri Parvardigor tomonidan oldindan belgilab qo'yilganiga iymon keltiradilar;
- Alloh taolo fazilatli payg'ambarlar: Muhammad alayhissalom, Iso alayhissalom, Muso alayhissalomlar bilan bir qatorda insonlarga ko'plab payg'ambarlarni, shu jumladan Nuh, Ibrohim, Ishoq, Yusuf, Dovudlarni yuborganiga ishonadilar, ularni barobariga hurmat qiladilar va sevadilar.

Qur'oni karim oyatlaridan birida musulmonlarning Ulug' Parvardigor tomonidan yuborilgan payg'ambarlardan hech birini ajratib qo'ymasliklari buyuriladi:

«Payg'ambar o'ziga Parvardigoriidan nozil qilingan narsaga iymon keltirdi va mo'minlar (ham iymon keltirdilar). Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg'ambarlariga iymon keltirgan har bir kishi (aytdi): «Uning payg'ambarlaridan biron kishini ajratib qo'ymaymiz». Va «eshitdik va itoat etdik. Parvardigoro, gunohlarimizni mag'firat qilishingni so'raymiz. Va faqat O'zingga qaytajakmiz», dedilar» (Baqara, 285).

Ahli kitoblar va musulmonlar faqat dindagina emas, balki axloqda ham yakdildirlar. Ko'p mamlakatlarda fohishabozlik, besoqolbozlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, oilaning vayron bo'lishi, axloqsizlik va xudosizlik, shafqatsizlik va poraxo'rlik, xudbinlik kabi illatlar urchib yotgan hozirgi bir paytda Ahli kitoblar va musulmonlar Buyuk Yaratuvchi ato etgan mushtarak fazilatlar: halollik, sha'n-izzat, sadoqat, birodarlik, kamtarlik, fidoyilik, samimiylik, rahm-shafqat, yaqinlariga cheksiz muhabbat, vatanparvarlik kabilarga amal qiladilar.

Ahli kitoblar va musulmonlarning umumiy dushmanlari

Hozirgi zamonda musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar birligini mustahkamlaydigan yana bir muhim omil bor. Bu odamlar qalbida dahriylik tufayli paydo bo'ladigan va ta'sirini tinmay kuchaytirib borayotgan xudosizlik, xudobexabar mafkuralar hamda ularning asoratlaridir.

Moddiyunchilik, kommunizm, neofashizm, anarxiya, irqchilik, milliy mahdudlik, sub'ektiv idealizm, ashaddiy jangovor ateizm kishilarni haqdan adashtiruvchi ekani yaxshi ma'lum. So'nggi ikki asr davomida jamiyat ongiga yoppasiga singdirilgan bu buzuvchi va soxta aqida-maslaklar shunga olib keldiki, juda ko'p kishilar iymon-e'tiqodni yo'qotib, johillik hamda bid'at botqog'iga botdilar. Buning ustiga ana shu mafkuralar xalqlar, mamlakatlar va hazoralar o'rtasida behisob falokatlar, to'qnashuvlar, qonli urushlarni keltirib chiqardi va bu dunyoga cheksiz og'ir kulfatlar hamda g'am-tashvish olib keldi. Hozir insoniyat boshidan kechirayotgan umidsizlik, sarosima va hayot mazmunining batamom yo'qolishi ko'p jihatdan ana shu mafkuralarning targ'ibot va tashviqoti natijasidir.

Yuqorida tilga olingan mafkuralar Allohning yaratuvchiligi to'g'risidagi haqiqatini inkor

qilib, o'z da'volarini barcha aksilxudo falsafalar va mafkuralarning «ilmiy» asosi hisoblanmish Darvinning tadrijiy (evolyutsiya) nazariyasi bilan xaspo'shlaydilar. Chunki tadrijiylik nazariyasi tarafdorlari hanuzgacha «Yer yuzidagi barcha jonli mavjudot, shu jumladan inson ham tasodifiy mos kelishlar zanjiri tufayli paydo bo'lgan va kuchli kuchsizni yo'q qiladigan hayot uchun tinimsiz kurash natijasida tadrijiy rivojlanib borgan» deb tasdiqlab kelishyapti. Shu tariqa darvinchilik inson ongiga quyidagi aqidani singdiradi: «Sen hech kim oldida javobgar emassan, sening hayoting faqat tasodifga bog'liq, sen berahm bo'lishing va omon qolish uchun to'xtovsiz kurash olib borishing kerak, zarur bo'lganda yo'lingdan chiqib qolganni ham yo'qotishing zarur, bu dunyo abadiy ixtilof va kurash dunyosidir». Axloqni bunday tushunish odamlarni xudbinlikka, ochko'zlikka, boylik izlash hirsiga, berahmlik va shafqatsizlikka olib keldi. Kishilar qalbida rahm-shafqat, ezgulik va samimiyatni to'la yo'qotib, bunday ahvolni «tabiatning muqarrar qonunlari» bilan oqlamoqchi bo'ldi.

Bunday darvincha tashviqot shubhasiz ahli kitoblarning e'tiqodi hamda Qur'on ko'rsatmalariga butunlay ziddir. Darvincha o'gitlar ana shu uchala diniy ta'limotning printsiplariga zid keladigan va ularni inkor etadigan oqimlar silsilasini yaratdi. Yagona Xudoga e'tiqod qiluvchi va Yaratuvchi bergan mukammal axloqqa amal qiluvchi barcha ahli kitoblar va musulmonlar ana shu xavf oldida qo'lni qo'lga berib, birlashib, darvinchilikning yolg'on aqida ekani, uning hech qanday ilmiy asosi yo'qligi, lekin faqat moddiyunchilik g'oyalarining mavjudligi tufayli yashovchanligini yo'qotmaganini butun dunyoga baralla aytishlari kerak. Biz iymonsizlik va xudosizlikdan kelib chiqqan hamda dunyoni axloqan chirishga olib kelayotgan yuqoridagi buzg'unchi mafkuralar (kommunizm, fashizm, irqchilik)ning hammasiga qarshi, birgalikda g'oyaviy kurash olib borishimiz kerak. Faqat shundagina dunyo tezda yana tinchlik, osoyishtalik va adolatga erishadi.

Aksilyahudiylik (antisemitizm) Islomga zid bo'lgan irqchilik shaklidir

Aksilyahudiylik (antisemitizm) yoki yahudiylarga nafrat va dushmanlik bugungi kunda butun yer yuzidagi odamlarning hayotiga, tinchlik va xavfsizligiga xavf solayotgan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Antisemitchilik XX asrda insoniyatga juda ko'p kulfat va g'am-alam keltirdi. Ikkinchi jahon urushi paytida natsistlarning yahudiylarga qarshi qilgan zo'ravonligi va ommaviy qatag'oni miqyosi va g'ayriinsoniylikiga ko'ra o'tgan asrimizning eng dahshatli va sharmandali hodisalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga ko'pgina mamlakatlarning diktator irqchi rejimlari yahudiylarni kamsitganlar va xo'rlaganlar. Fashizm yo'nalishidagi tashkilotlar, taassufki, yahudiylarga shafqatsizlarcha hujumni hozir ham davom ettirmoqdalar.

Musulmonlar bu muammoga qanday munosabatda bo'lishlari kerak?

Javob faqat bitta bo'lishi mumkin: Har bir chin musulmon antisemitchilikning g'ayriinsoniy mafkurasi va irqchilikning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishi, bunda xoh yahudiy yoki boshqa xalq vakili bo'lsin, kamsitish va zulmga duchor bo'lgan har bir kishining manfaatini himoya qilishi kerak. Alloh taoloning amr-farmonlarini bajaruvchi musulmon Isroilda yoki biron o'zga joyda yashayotgan har bir yahudiyning diniy e'tiqod erkinligi, diniy marosimlarni bemalol ijro etishi, barcha shaxsiy huquq va erkinliklarini tan olishi va himoya qilishi zarur. Bugun musulmonlar Isroil hukmron doiralarning shafqatsiz, tajovuzkor, bosqinchilik siyosatini mutlaqo haqli ravishda qoralamoqdalar. Ammo sionistlar aybining jabrini tinch aholi, yahudiylar, jumladan Isroil fuqarolari tortmasliklari kerak.

Butun bir xalqqa nisbatan ayblovlar va nohaq xulosalardan qochish, yaxshi bilan yomonni, mustabid bilan begunoh xalqni farqlashning muhimligi Qur'oni karimda alohida ta'kidlangan. Parvardigor mo'minlarga o'zining amrlarini buzgan va o'zgartirgan ayrim yahudiy va nasroniylarning adashuvi va gunohini ko'rsatib beradi hamda Allohga e'tiqodini saqlab qolgan boshqa yahudiy va nasroniylarning yaxshi ahloqi haqida ma'lum qiladi:

«(Ahli kitobning hammasi ham) barobar emas. Ahli kitob orasida sajda qilgan holda tunlari Allohning oyatlarini tilovat qiladigan to'g'ri yo'ldagi kishilar ham bor. (O'sha zotlar) Allohga va oxirat kuniga iymon keltiradilar, yaxshi amallarga buyurib, yomon amallardan qaytaradilar va yaxshilik qilishga shoshiladilar. Ana o'shalar solih bandalardandirlar. Ular qilgan biron yaxshilik berkitilmaydi (ya'ni zoe bo'lmaydi). Alloh taqvodorlarni bilguvchidir». (Oli Imron, 113 - 115).

Shuning uchun musulmon sifatida bizning Isroilning bosqinchilik siyosati va davlat terroriga javobimiz antisemitchilikka hech qanaqasiga aloqador emas. Musulmonlar irqchilikning bir ko'rinishi sifatida Isroilning rasmiy mafkurasiga aylangan sionizmni qat'iy qoralaydilar. Biz ham ana shu sababga ko'ra antisemitchilikni qoralaymiz. Antisemitchilik aslida majusiylikning, butparastlikning bir ko'rinishi bo'lib, u birorta ham chin mo'min tomonidan qabul qilinishi mumkin emas. Antisemitchilik mafkurasiga amal qilayotganlar Alloh taolo tomonidan elchi qilib tanlab olingan va Haq dinda bo'lgan ulug' payg'ambarlar Ibrohim alayhissalom, Muso alayhissalom, Dovud alayhissalomlarga ham o'zini dushman deb tan olishi kerak. Antisemitchilik misol uchun qora tanli odamga irqiy dushmanlik kabi irqchilikning boshqa shakllariga o'xshab turli butparastlik, majusiylik oqimlari va xurofotlar tufayli yuzaga kelgan ochiq-oydin bid'atdir. Umuman antisemitchilik va irqchilik hodisalarini chuqurroq o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu g'oyaviy oqimlar Qur'on da'vatiga mutlaqo xilof, zid bo'lgan fikrlash tarzi va hayot modelini jamiyatga targ'ib qiladi. Antisemitchilik hodisasi zaminida nafrat, zulm, zo'ravonlik, shafqatsizlik tuyg'ulari yashiringan bo'ladi. Antisemitning yovuzlarcha, johillarcha g'azabnok quturishi qotillikni va hech qanday gunohi bo'lmagan yahudiylar (qariyalar, xotin-qizlar, bolalar)ga zulm-zo'ravonlik qilishni «oqlashga» qodir. Vaholangki, Qur'oni karim da'vati kishilarni sevgiga, rahm-shafqatli bo'lishga, mehribonlik ko'rsatishga o'rgatadi, musulmonlarni barcha kishilarga ham, hattoki o'zlariga nisbatan haqsizlik qilganlarga ham adolat va mehr-shafqat ko'rsatishga buyuradi.

Ikkinchi tomondan, antisemitchilar va irqchilar turli etnik yoki diniy guruhdagi odamlarning tinch-totuvlikda yashashiga jon-jahdlari bilan qarshilik qiladilar. (Nemis natsistlari va yahudiy sionistlarining nemislar va yahudiylarning tinch-totuv yashashiga qarshi chiqqanligi bunga misol bo'lib xizmat qiladi, ular nazdida bu omil go'yo o'z irqlarining aynishi va inqiroziga sabab bo'larmish). Biroq Islom, avvalda eslatib o'tilganidek, odamlarni ana shunday ajratishni mutlaqo qabul qilmaydi. Qur'oni karim mo'minlarni diniy e'tiqodi va millatidan qat'iy nazar barcha odamlar bilan tinchlik-xotirjamlikda yashashlarini rag'batlantiradi:

**«Ey insonlar, darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayoldan (Havo) yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishinglar, deb sizlarni xalqlar, qabila-
elatlar qilib qo'ydik. Albatta, sizlarning Alloh nazdidagi eng hurmatlirog'
taqvodorrog'ingizdir. Albatta, Alloh bilguvchi va ogohdir»** (Hujurot, 13).

Qur'on musulmonlar, nasroniylar va yahudiylarga do'st bo'lib yashashni buyuradi

Qur'oni karimda ahli kitoblar (ya'ni, ilohiy kitoblar sohiblari) deb tilga olingan nasroniy va yahudiylar yagona Parvardigorga chin dildan iymon keltirgan va Uning amr-farmon va ko'rsatmalariga amal qiladigan kishilardir.

Shu jihatdan, ahli kitoblar musulmonlarga juda yaqin.

Qur'oni karimda, shuningdek, xudosizlar, mushriklar haqida ham gapirilgan:

«Ey mo'minlar, hech shak-shubhasiz mushriklar nopok kimsalardir, bas, ular bu yildan so'ng Masjidul Haromga yaqin kelmasinlar!» (Tavba, 28).

Mushriklar ilohiy qonunlarni tan olmaydigan, hech qanday axloqiy zaminga ega bo'lmagan, shuning uchun har qanday yovuzlik va razolatdan tap tortmaydigan kimsalardir.

Ayni paytda ahli kitoblar yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lib, Parvardigor tomonidan ijozat berilgan va ta'qiqlangan narsalarga amal qiladilar, bunda Parvardigor kitoblar orqali nozil qilgan amr-farmonlarga bo'ysunadilar. Alloh taolo mo'minlarga asl ahli kitoblar tayyorlagan taom musulmonlarga halolligi, shuningdek, musulmonlarning ovqati ahli kitoblarga halolligi haqida xabar beradi. Qur'oni karimga muvofiq, musulmon erkakka ahli kitoblarning ayollaridan xotinlikka olishga ruxsat etilgan. Ulug' Parvardigor Qur'on oyatlaridan birida musulmonlarga shunday amr qiladi:

«Bugun sizlar uchun barcha pokiza narsalar halol qilindi. Kitob berilgan kimsalarning taomlari sizlar uchun haloldir va sizlarning taomlaringiz ular uchun haloldir. Qachonki zino qilmay va yashirin o'ynash tutmay mahrlarini berib uylansangiz, sizlar uchun mo'minalar orasidan o'zlarini haromdan saqlagan ayollar va sizlardan ilgari Kitob berilgan kimsalardan bo'lgan o'zlarini haromdan saqlagan ayollar ham haloldir. Kimki iymonidan qaytsa, uning qilgan amali behuda ketishi aniqdir va u oxiratda ziyon ko'rguvchilar toifasidandir» (Moida, 5).

Qur'oni karim mo'minlarga xabar beradiki, musulmonlar va ahli kitoblar nikoh tuzishlari va qarindoshlik aloqalari o'rnatishlari, bir-birlarini mehmonga taklif etishlari va mehmonga borishlari mumkin, bu o'z navbatida yaxshi va qardoshlarcha insoniy munosabatlar o'rnatish va tinch-totuv yashash uchun asos hisoblanadi.

Agar Alloh taolo Qur'oni karim orqali mo'minlarni ahli kitoblarga yaxshi va diniy bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishga buyurgan bo'lsa, unda musulmonlar ulug' Parvardigorlari ko'rsatmalariga zid keladigan yo'lni tanlashlari mumkin emas.

Payg'ambarimiz Muhammadning (s.a.v.) ahli kitoblar bilan adolatli va diniy bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lganlari ham barcha mo'minlar uchun yorqin namuna hisoblanadi. Masalan Payg'ambarning (s.a.v.) Arabiston yarim oroli janubidagi Najron shahri nasroniylari bilan tuzgan bitimlarining bir bandi quyidagi mazmunda edi:

«Najronliklar va ularning yaqinlari, hayoti, mol-mulki, oilalari, ularning hamma narsalari, dini, butxonalari – ana shularning barchasi Alloh va Uning rasuli himoyasida va homiyligida bo'ladi».

Payg'ambarimizning nasroniylar, yahudiylar va mushriklar jamoalari bilan tuzgan Madina bitimi musulmonlarning adolati va diniy bag'rikengligiga eng yaqqol misollardan biri

hisoblanadi.

Musulmonlarning Madinaga hijratlaridan so'ng tayyorlangan bu bitim melodiylar 622 yilda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) rahbarliklarida turli diniy e'tiqoddagi kishilar ehtiyojidan kelib chiqib tuzilgan va yozma yuridik kelishuv sifatida hayotga tadbirlanib etilgan. Payg'ambarimizning (s.a.v.) bu bitimlari barcha xalqlarga, hattoki uzoq davom etgan to'qnashuvlardan keyin ham urushayotgan tomonlar bitimga kelib, tinch hayot boshlashlari, sulhga erishib, tinchlik-totuvlikda yashashlari mumkinligini namoyish qildi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) tuzgan bu bitim 622 yilgacha bosqichma-bosqich yangilanib turildi. Bitim qoidalari sharofatidan qarindoshchilik va xun olish asosiga qurilgan jamiyat andozasidan voz kechildi, vahshiyona urug'chilik munosabatlariga asoslangan ibtidoiy tartiblarga barham berildi. Madina bitimi barcha tomonlarga diniy e'tiqodga to'la erkinlikni ta'minlab berdi.

Qur'on monastir, butxona va sinagogalarga hurmat bilan qarashni buyuradi

Qur'oni karim mo'minlarga ta'lim bergan yana bir muhim haqiqat bu nasroniylar va yahudiylar ibodat qiladigan joylarga chuqur ehtirom va hurmat bilan munosabatda bo'lmoqlikdir. Qur'onning xabariga ko'ra, ahli kitoblar ibodat qiladigan joylar, ya'ni monastirlar (rohiblar uzlatga chekingan ibodatxona), butxona va sinagogalar (yahudiylar ibodatxonasi) Alloh taoloning himoyasidadir:

«Agar Alloh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf' qilib turmas ekan, shubhasiz Alloh nomi ko'p zikr qilinadigan (rohiblarning) uzlatgohlari, (nasroniylarning) butxonalari, (yahudiylarning) ibodatxonalari va (musulmonlarning) masjidleri vayron qilingan bo'lur edi. Albatta, Alloh O'ziga (ya'ni diniga) yordam beradigan zotlarni g'olib qilur. Shubhasiz, Alloh kuchli, qudratlidir» (Haj, 40).

Ushbu oyat har bir musulmonga ahli kitoblar ibodat qiladigan joylarni chuqur hurmat va himoya qilish muhimligini ochiq-oydin ko'rsatib qo'ygan.

«Bir so'z»ga birlashaylik

Alloh taolo musulmonlarga ahli kitoblarni «bir so'zga» birlashishga chaqirishni buyuradi:

«Ayting (ey, Muhammad): «Ey Ahli kitob (ya'ni yahudiy va nasroniylar), bizga ham, sizga ham bab-barobar bo'lgan bir so'zga kelingiz – yolg'iz Allohgagina ibodat qilaylik, Unga hech narsani sherik qilmaylik va Allohni qo'yib, bir-birlarimizni Allohdan o'zga xudo qilib olmaylik» (Oli Imron, 64).

Bugun biz yolg'iz Ilohga ishongan va Uning farmonlariga amal qilgan kishilar sifatida nasroniylar va yahudiylarni «kelinglar, barchamiz uchun barobar bo'lgan «Allohga iymon keltiraman» so'ziga birlashaylik», deb da'vat qilamiz. Kelinglar, Yaratuvchimiz va Parvardigorimizni birgalikda sevaylik, Uning amr-farmonlariga amal qilaylik, U iymonimizni mustahkam qilsin, qalbimizni oqillik ila bezasin, barchamizni O'zining haq yo'lga, hidoyat yo'lga yo'llasin, deb duoda bo'laylik.

Musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar «Allohga iymon keltiraman», degan so'zga birlashsalar, bir-birlariga dushman emas, balki Parvardigorning dini tufayli birodar ekanlarini, iymonsizlik va ateizm o'zlarining asosiy dushmanlari ekanini anglab

yetaardilar, dunyo butunlay boshqacha bo'lur edi. Bir necha o'n yillardan beri davom etayotgan janjal, nizo va ziddiyatlar tinchigan, terror va zo'ravonlikning g'ayriinsoniy va befoyda holatlari to'xtagan, urushlar barham topgan, odamlar hayot oldidagi qo'rquvdan, yaqinlariga ishonchsizlikdan xalos bo'lur edilar.

«Iymon keltiraman» degan so'z bilan birgalikda yer yuziga yangi davr – rahm-shafqat, sevgi va yaqinlarga hurmat, tinchlik va gullab-yashnash davri kelgan bo'lur edi.

Barcha musulmonlar esda tutishi lozim haqiqatlar bor. Shuni unutmaslik kerakki, Alloh taolo bizga ta'lim bergan turli millat va diniy e'tiqoddagi kishilar bilan o'zaro munosabat tamoyillari mutlaqo ravshandir:

– Qur'oni karim har qanday irqchilik ko'rinishlarini ta'qiqlaydi.

– Qur'on, agar ular Islom va musulmonlarga dushmanlik kayfiyatida bo'lmasalar, boshqa dindagilarga nisbatan chuqur ehtirom va izzat-ikrom ko'rsatishni buyuradi.

Shu narsa aniq ravshanki, Qur'on yahudiylar yo'l qo'ygan ko'pgina adashuv va soxtalashtirishlardan mo'minlarni ogohlantiradi va ularning e'tiborini ana shularga qaratadi. Isroil va Falastin muammosi tarixi hamda hozirgi kuni ushbu muammoning har ikki tomondan ko'plab xato, ta'bir joiz bo'lsa, qonli xatolarga sabab bo'lganini ham ko'pchilik biladi. Lekin bunday holat musulmonlarning umuman yahudiylarga nisbatan sovuqchilik tuyg'ulariga aslo sababchi bo'lmasligi kerak. Sionizm g'oyasi ta'siri ostida ayrim yahudiylar qilayotgan jinoyatlarni haqiqiy yahudiylik va barcha yahudiy xalqi bilan mutlaqo bog'lamaslik kerak. Biz musulmonlarga Qur'onda buyurilgan asosiy tamoyil shuki, odamlarning faqat irqiy, etnik yoki qaysi dinga mansubligi tufayligina ular haqida umumlashgan xulosalarga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Har bir jamoada taqvodor kishilar ham, buzg'unchi yaramaslar ham bo'ladi.

Qur'oni karim mo'minlar e'tiborini ana shuni farqlab olishga qaratadi:

«Aniqki, biz har bir ummatga: «Allohga ibodat qilinglar va shaytondan yiroq bo'linglar», (degan vahiy bilan) bir payg'ambar yuborganmiz. Shunda ular (o'sha ummatlar) orasida Alloh hidoyat qilgan zotlar ham, shuningdek, cheklariga yo'ldan ozishlik tushgan kimsalar ham bo'lgan. Bas, yer yuzida sayru sayohat qilib, (o'z payg'ambarlarini) yolg'onchi qilgan kimsalarning oqibatlarini qanday bo'lganini ko'ringlar» (Nahl, 36).

Alloh taolo har bir payg'ambariga vahiy yuborgan: U borliqni yaratgan va uning parvardigori Uning o'zidir, binobarin barcha hamdu sanolar hamda itoat Uning o'zigadir. Allohning elchilari chin iymonga chaqirganlarning ayrimlari haq yo'lni tanladilar, boshqa birovlar esa hidoyat yo'lidan adashib ketdilar. Ba'zi odamlar ezgulik, xayrli ishlar tarafdori bo'lishsa, ba'zilar gunohlar botqog'iga botdilar. Allohning qonuni shunday. Mo'minlar dunyoni xuddi shu tarzda idrok qilishlari va barcha diniy e'tiqodda bo'lganlar ichida solih, taqvodor odamlar ham, axloqning oddiy tamoyillaridan uzoq bo'lgan johil kimsalar ham borligini esda tutishlari lozim. Biz irqchilik kasofatidan xalos bo'lgan barcha millat va diniy e'tiqodga mansub odamlar tinchlik-totuvlik, o'zaro hurmat va adolatda yashaydigan dunyo barpo etilishiga ishonamiz. Dunyodagi barcha iymonli kishilar hamjihat bo'lib boshlaydigan ateistik mafkuraga qarshi kurash kurramizda tinchlik va barqarorlikning mustahkam tayanchi bo'lishiga shubha yo'q.

ISLOM DINI VA YAQIN SHARQ XALQLARI

Tarixiy dalillarning shohidlik berishicha, musulmon hukmdorlar boshqargan mamlakatlarda hamisha tinchlik, diniy bag'rikenglik, farovonlik hukm surgan. Payg'ambarimizning (s.a.v.) qo'shib olingan yerlarning xalqlari bilan munosabatlari bunga eng yorqin misol hisoblanadi. Lekin u zotdan keyin ham Qur'on ko'rsatmalariga sodiq bo'lgan va Allohning rasuli yo'l-yo'riqlariga amal qilgan musulmon hukmdorlar tinchlik, adolat va diniy bag'rikenglik bilan to'lib-toshgan jamiyatni shakllantirishga muvaffaq bo'lganlar. Qur'onda bayon etilgan asl adolat xuddi ana shu hukmdorlar davrida ustun bo'lgan, ular o'z navbatida kishilarning kelgusi avlodlari uchun ibratli ishlarni amalga oshirganlar.

Musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar ziddiyat va urush nimaligini bilmay, tinch-totuv yashagan Falastin va Quddus yerlari musulmon dini ana shu zaminga olib kelgan barqarorlik va diniy bag'rikenglikka yaqqol misol bo'ladi. Islomning 1400 yil mobaynida Quddusda va Falastin yerlarida tinchlikka kafolat bo'lgani isbot talab etmaydigan dalildir.

Xalifa Umarning Falastinda o'rnatgan tinchlik va adolati

Milodning 71 yiligacha Quddus yahudiy podshohligining poytaxti bo'lib kelgan. Biroq o'sha yili Rim qo'shinlari keng miqyosda yurish boshlashdi va yahudiylarni tor-mor qilib, aholidan vahshiylarcha o'ch olishdi, yahudiylarni o'z yerlaridan quvib chiqarishdi. Shu tarzda yahudiylar uchun darbadarlik davri boshlandi, Quddus va uning atroflari xarobaga aylandi.

Imperator Konstantin davrida Rim imperiyasi nasroniylarni qabul qilgandan so'nggina Quddus yana e'tibor va e'zoz markaziga aylandi. Rimlik nasroniylar shaharda butxonalar qura boshlashdi, yana ana shu yerlarga yahudiylarning ko'chib kelib o'rnatishlariga ruxsat berishdi.

Milodning VII asrida Falastin Rim (Vizantiya) imperiyasi tarkibida edi. Oradan ko'p o'tmay, forslar bu hududni bosib olishdi, biroq tezda Vizantiya yana Falastinda o'z hukmronligini o'rnatdi.

637 yilda Arab xalifaligi qo'shinlari - musulmonlar tomonidan bu yerlarning fath etilishi Falastin tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Aynan mana shu fath asrlar mobaynida behisob urushlar va hukmdorlarning shafqatsizligidan, xalqlarning quvg'in qilinishi, bir hukmron dinning boshqasi bilan almashinuvi, vayrongarchiliklar, azob-uqubat va jabrlardan jafoda chekkan Falastin yerlarida diniy bag'rikenglik, tinchlik va farovonlik davrining ibtidosi bo'ldi.

Falastin Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) to'g'ri yo'ldagi xalifalaridan hazrati Umar (r.a.) boshchiligidagi arab qo'shinlari tomonidan fath etilgan edi. U zot Falastinda yashab turgan barcha etnik va diniy guruhlariga aqli rasolik bilan, hurmat va e'zoz-ehtiromda munosabatda bo'ldi, ana shu yerlarda diniy bag'rikenglik va o'zaro hurmat an'analari asos soldi. Angliyalik tarixchi va Yaqin Sharq bo'yicha mutaxassis, avvalda rohiba bo'lgan Karen Armstrongning «Muqaddas urush» («Holy War») kitobida yozilishicha: *Xalifa Umar Quddusga oq tuyada kirib borganlar, unga shahar hokimi va Quddus patriarxi (oliy ruhoniysi) yunon Sofroniy hamrohlik qilgan. Patriarx xalifa Umarga Quddusning asosiy ibodatxonalarini ko'rsatgan va Eski Ahdda tilga olingan Sulaymon ehromi xarobalariga olib borgan. Xalifa Umar xojasi va birodari payg'ambar Muhammad (a.s.) Me'rojga ko'tarilgan joyni ziyorat qilgan va shu joyda namoz o'qigan. Patriarx bu voqeani dahshat ichra kuzatib turardi... u endi «kunim bitdi» deb o'ylayotgan edi. So'ngra xalifa Umar nasroniylar ibodat qiladigan joyni va Payg'ambar Iso (a.s.) tobuti yonidagi ibodatxonani ko'rmoqchi bo'ldi. Lekin u ibodatxonaga yetib borganida namoz vaqti bo'lib qoldi. Patriarx odob bilan Xalifaga ana shu ibodatxonada namoz o'qish*

taklifini aytdi, lekin Xalifa uzrini aytib, taklifni rad etdi: «Agar men ushbu ibodatxonada namoz o'qigudek bo'lsam, musulmonlar bu voqeani tarix uchun saqlab qolish maqsadida ibodatxona o'rnida masjid qurishni xohlab qoladilar, demak muqaddas maqbara yonidagi ibodatxonani ular buzishlari mumkin». Xalifa ibodatxonadan chiqib, muqaddas maqbaradan ancha narida namoz o'qidi. Shu narsa diqqatga molikki, bugun Xalifa namoz o'qigan joyda Umarning ixchamroq masjidi qurilgan. Masjid shundoqqina Iso (a.s.) tobuti yonidagi ibodatxona qarshisida joylashgan.

Xalifa Umar sharafiga Zaytun tog'i ustida ham yana bir katta masjid qurilgan. Musulmonlar kelgunga qadar, uzoq yillar mobaynida nasroniylar Sulaymon payg'ambar ehromi xarobalari joylashgan bu yerdan shahar axlatxonasi sifatida foydalanishardi. Xalifa ana shu hududni to'plangan axlatdan tozalashda musulmonlarga shaxsan yordamlashgan. Shu tariqa bu shaharda ikkita masjid barpo qilib, musulmonlar Islomning uchinchi muqaddas shahrida o'rnashganlar. Xalifa Quddusga kirganida musulmonlarning diniy bag'rikengligi ko'rinishi sifatida shahar patriarxi bilan quyidagi shartnomani imzolagan:

«Ushbu Allohning bandasi, mo'minlarning amiri Umar tomonidan Iliya (Quddus) xalqiga berilgan homiylik haqidagi bitimdir. Mo'minlar amiri sog' yoki kasal bo'ladimi, baribir, butun xalqning hayoti va mol-mulkingning himoyasini, shuningdek ularning ibodat joylari, butlari va dinlarining daxlsizligini kafolatlaydi. Xalqning butxonalari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi va ular turarjoyga aylantirilmaydi. Ularning avvalgi huquqlari saqlanib qoladi. Ularning mulkidan hech narsaga zarar yetkazilmaydi va diniy e'tiqod masalasida hech kimga hech qanday bosim o'tkazilmaydi. Ulardan biron-tasiga tariqcha ham zarar yetmaydi. Alloh, Uning rasuli, Rasulning sahobalari va barcha mo'minlar ushbu bitimni tasdiqlaydilar. Imzo - Umar ibn Xattob».

Shunday qilib, musulmonlar Quddusga tinchlik va madaniyat olib keldilar. Boshqa xalqlarning muqaddas joylariga hech qanday hurmat ko'rsatmaydigan, faqatgina dinlaridagi farq tufayli bir-birlarini o'ldirish va ta'qib qilishga asoslangan vahshiylarcha yovvoyi qonunlar va aqidalar o'rniga Falastin zaminida Islomning adolatli va diniy bag'rikeng madaniyati qaror topdi. Falastin Xalifa Umar (r.a.) rahbarligida xalifalikka qo'shib olingandan keyin musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar uzoq asrlar mobaynida bu yerda tinchlik va osoyishtalikda yashab keldilar. Musulmonlar hech qachon boshqa dindagilarni Islomga zo'rlab kiritishni o'ylamaganlar ham, ammo Islom Parvardigorning haq dini ekanini tushunib yetgan ko'plab musulmon bo'lmaganlar o'z ixtiyorlari bilan Islomni qabul qilganlari to'g'risida dalillar ma'lum. Musulmonlar himoyasi ostidagi Falastinda tinchlik va uyg'unlik uzoq vaqt davom etdi. Biroq XI asr oxirida Falastin hozirgacha misli ko'rilmagan shafqatsizlikka duchor bo'ldi. Mamlakatga bostirib kirgan vahshiylar fazilatli Falastin yerlarini daryo-daryo qonga botirib, zulm va qo'rquv makoniga aylantirdilar.

Salbchilarning vahshiyliigi

Fazilatli Falastin yerlarida uchchala diniy e'tiqod vakillari to'la tinchlik va totuvlikda yashab turgan bir paytda Ovrupo nasroniylarining ayrim diniy va siyosiy rahbarlari Quddus ustiga salbchilar yurishi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildilar. 1095 yilning 25 noyabrida Klermondagi yepiskop bosh butxonasida Papa Urban II nasroniylarni harbiy yurish qilib, «Muqaddas zaminni musulmonlardan qutqarishga» chaqirdi. Ovruponing barcha burchaklaridan to'plangan nasroniylarning yuz mingdan ziyodroq qo'shini asosan

Sharqning behisob boyliklari tama'sida Falastinga qarab yo'l oldi. Uzoq va silla quritar yurishdan, qirg'inbarot urushlar va musulmonlarning shaharlarini vayron qilishdan so'ng salbchilar qo'shini nihoyat 1099 yili Quddusga yetib bordi. Besh haftacha davom etgan qamaldan so'ng, shahar taslim bo'lib, salbchilar unga kirib bordilar va tarixda hali ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiylik sodir qildilar. Shaharning barcha musulmonlari va yahudiylari qilichdan o'tkazildi. Salbchilar sevgi va rahm-shafqat dini bo'lgan nasroniylikning barcha axloqiy amr-farmonlarini toptab tashladilar va «din himoyasi uchun kurash» nomi bilan niqoblanib, ochiq-oydin xudoning buyruqlariga zid ravishda terror uyushtirdilar. Yillar o'tib salbchilarning jinoyatlari hozirgi zamon nasroniylari oliy rahbarlari va jamoatchiligi tomonidan e'tirof etildi.

Salohiddin Ayyubiyning adolati

Salbchilarning yarim yovvoyi lashkari sarhadlari Falastindan Antioxiya (hozirgi Turkiyaning janubiy-sharqiy qismidagi Antiokiya shahri)gacha cho'zilib ketgan Quddus podshohligini tashkil etib, Quddusni o'z poytaxtlariga aylantirdi. Biroq muqaddas Falastin yerlariga dahshat va qayg'u-alam olib kelgan bebosh salbchilarning hukmronligi uzoq davom etishi mumkin emas edi. Taniqli sarkarda va siyosiy arbob, Qohira sultoni Salohiddin Ayyubiy Yaqin Sharqdagi barcha musulmon amirliklarini birlashtirib, 1187 yil 3 iyulda Jalila (Genisaret) ko'lidan g'arbroqdagi Xittin qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda salbchilarning qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi. Jangdan so'ng salbchilar qo'shinlarining ikki bosh qo'mondoni Reno Shatilonskiy va qirol Gi Salohiddin Ayyubiyning huzuriga olib kelindi. Suddan keyin musulmonlarni qiynoqqa solish va qirg'in qilish bilan yomon nom chiqargan Reno Shatilonskiyni qatl qilishga qaror qilindi. Qirol Gini esa, aybi bo'lmaganligi uchun ozod qilib yubordilar. Falastin odamlar orasidagi chinakam adolatli munosabatga yana bir karra guvoh bo'ldi.

Xittindagi jangdan so'ng Salohiddin Ayyubiy Quddus shahrini salbchilar hukmronligidan batamom ozod qildi, aynan Me'roj kechasi arafasida Falastinning 88 yillik istilosiga nuqta qo'yildi. Salbchilarning 88 yillik hukmronligi davrida shaharda qachonlardan buyon yashab kelgan barcha musulmonlar yo'q qilingan edi. Salohiddin qo'shinlari shaharga kirib kelgandan so'ng, unda qolgan salbchilar o'zlari ham ana shunday qismatga duchor bo'lishlarini qo'rquv bilan kutdilar. Biroq Salohiddin shahardagi bironta ham nasroniyga zarar yetkazmadi. Bundan tashqari, u faqat o'zlarini salbchilar qo'shiniga mansub hisoblagan katolik nasroniylarga shaharni tark etishni buyurdi. Pravoslav nasroniylar esa shaharda qolib, hech qanday jabr-zulm va kamsitish ko'rmay, odatdagiday hayot kechirdilar va diniy ibodatlarini ado etdilar. Angliyalik tarixchi Karen Armstrong musulmonlarning Quddusdagi ikkinchi g'alabasini shunday ta'riflaydi:

1187 yilning 2 oktyabrida Salohiddin va uning qo'shinlari Quddusga g'olibona kirib kelishdi va endi shahar 800 yil musulmonlarniki bo'lishi kerak edi. Salohiddin pravoslav nasroniylarga va'da berganiday, shaharda Islom adolatining yuksak tamoyillarini o'rnatdi. Qur'onga itoatan u hech kimga zulm o'tkazmadi, 1099 yildan buyon salbchilar tomonidan shaharda qirib tashlangan dindoshlarining begunoh o'limi uchun qasos olmadi. Bironta ham nasroniy qatl etilmadi, ulardan biron kishiga ham zulm qilinmadi. Asir tushgan salbchilar uchun tovon puli eng kam miqdorda belgilandi. Qur'on oyatlari orqali buyurilganiga ko'ra, og'ir aybi bo'lmagan ko'plab salbchilar tovon pulisiz ozod qilib yuborildi. Salohiddinning inisi Odil ishlatish uchun o'ziga 100 yaqin asirni so'rab olgan edi, ammo keyinchalik ularning og'ir ruhiy holatdaligini ko'rgach, hech qanday tovonsiz barcha harbiy asirlarga javob berib yubordi. Ayrim boy nasroniylar shahardan ketishga qaror qildilar. Ular barcha boyliklarini o'zlari bilan olib, shaharni hech qanday to'siqsiz

tark etdilar. Vaholanki, ana shu boyliklar barcha asirlarni sotib olib, ozod qilishga yetarli edi. Yepiskop Geraklius o'zi uchun 10 dinor to'plab, to'plagan hamma mol-mulkini aravaga yuklab, shaharni xotirjam tark etdi.

Sulton Salohiddin va uning qo'l ostidagi musulmon qo'shinlari nasroniyarga chinakam adolat va rahm-shafqat bilan munosabatda bo'ldilar, mag'lubiyatga uchragan jangchilarga ularning salbchi sarkardalariga qaraganda ham ko'proq adolat ko'rsatdilar. Falastinning boshqa shaharlari ham salbchilarning vahshiylikiga duchor bo'lgan edi. Xalq qahramoni sifatida talqin qilinadigan Angliya tarixining afsonaviy shaxsi Richard Sheryurak 1119 yilda III salb yurishida hozirgi Isroil hududidagi Akkon (Akra) qal'asini qamal qilishda qatnashgan. Qal'a taslim bo'lgandan keyin, u tovon to'lash va sulh takliflarining birontasiga ko'nmay, shahardagi deyarli 3000 musulmonni, ayollar va bolalarni ham qo'shib qatl qilishga buyruq beradi. Shaharni salbchilardan ozod qilgan musulmon qo'shinlari tinch aholining vahshiyona qatl etilganligini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar. Hattoki qarindoshlar va yaqinlaridan judolik alami ham musulmonlarga g'animdan o'ch olib, zulm qilishga yo'l qo'ymadi. Chunki Parvardigor Qur'onda musulmonlarga shunday deb buyurgan:

«Ey mo'minlar, biron qavmni yomon ko'rishingiz haddingizdan oshishingizga tortmasin» (Moida, 2).

Musulmonlar hech qachon tinch aholiga qarshi harbiy kuch ishlatmaganlar. Hattoki mag'lub bo'lgan salbchilarning qo'shinlariga nisbatan ham jazo va shafqatsizlik qo'llanilmagan. Chunki Islom zo'ravonlik, ziddiyatlar, urushlar va terrorni tag-tomiri bilan yo'qotish yo'li hamda adolat, tinchlik, diniy bag'rikenglik va farovonlik kafolatidir.

© "MUTARJIM" 2003